Излаш

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.02.2023 yildagi PF-27-son

Кучга кириш санаси 02.03.2023

Қўшимча ахборот

Улашиш

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

## 2022 — 2026-YILLARGA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASINI "INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI"DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarga muvofiq aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda kambag'allikni qisqartirish borasidagi islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida:

1. Jamoatchiligimiz va xalqimiz bilan keng muhokamalarda bildirilgan takliflar asosida ishlab chiqilgan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o'rinlarda — Davlat dasturi) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari Davlat dasturi ijrosini samarali, qat'iy tartib-intizom asosida tashkil etib, 10 kun muddatda har bir tuman, shahar va mahalla kesimida amaliy chora-tadbirlarni belgilasin hamda keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida muntazam ravishda mas'ul shaxslarning hisobotini eshitib borsin.

Oliy Majlis palatalari va mahalliy Kengashlarga Davlat dasturining bajarilishini tumanlar, shaharlar va mahallalarga borib o'rganish, mas'ul davlat organlari rahbarlarining hisobotlarini eshitib borish tavsiya etilsin.

2. Xalqimizning og'irini yengil qilish, aholi uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish va ularning xarajatlarini tejash maqsadida, 2023-yil 1-iyuldan boshlab:

a) barcha davlat organlari va tashkilotlarida "Aholi va tadbirkorlarga servis sifatini oshirish" chora-tadbirlari belgilansin.

Vazirlar va boshqa mustaqil ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari 15 kun muddatda o'z tizimida masofadan turib, shu jumladan mobil ilovalar orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini ko'paytirish, undiriladigan to'lovlar miqdorini kamaytirish, talab qilinadigan ortiqcha hujjatlarni bekor qilish, ko'rib chiqish jarayonlari va muddatlarini keskin qisqartirish, shaffoflikni oshirish, aholi va tadbirkorlar bilan doimiy muloqot maydonchalarini tashkil etish, xodimlarning muomala madaniyatini yuksaltirish, tezkor va sifatli xizmat ko'rsatishga o'qitish bo'yicha tadbirlar dasturini tasdiqlab, aholi va tadbirkorlarga e'lon qilsin;

b) davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni 300 taga, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladigan xizmatlar soni esa 570 taga yetkazilsin;

v) aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari (nogironligi bo'lgan shaxslar, og'ir bemorlar, keksalar va boshqalar)ga migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi davlat xizmatlarini doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyiga chiqish orqali ko'rsatilgan xizmat uchun qo'shimcha to'lov undirilmagan holda ko'rsatish yo'lga qo'yilsin;

g) elektr, gaz va suv sarfi hisoblagichlarini qiyoslashdan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlarini proaktiv tarzda ko'rsatish (fuqaro murojaatini kutmasdan, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning o'z tashabbusi bilan) taklifini yuborish yo'lga qo'yilsin.

3. 2023-yil 1-sentabrdan boshlab aholi va tadbirkorlik subyektlariga subsidiya ajratish bilan bog'liq barcha xizmatlar bosqichma-bosqich "Aholi va tadbirkorlik subyektlariga subsidiya ajratishning yagona elektron platforma"siga o'tkazilsin hamda subsidiyalarni ajratishning maqsadga muvofiqligini elektron platforma orqali onlayn tekshirish tizimi yo'lga qo'yilsin.

Bunda, subsidiyalar ajratish to'g'risidagi arizalarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali yoki istalgan tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlari orqali topshirish imkoniyatini yaratish hamda ortiqcha byurokratik to'siqlar va boshqa korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish ta'minlansin.

4. Fuqarolarning pensiya ta'minotini yaxshilash va pensionerlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida, 2024-yil 1-yanvardan boshlab pensionerga hisoblangan, lekin o'z vaqtida olinmagan pensiyani to'lash muddati 12 oydan 24 oyga uzaytirilsin.

5. Nogironlikni belgilashda fuqarolarga qo'shimcha yengilliklar yaratish maqsadida:

a) 2023-yil 1-apreldan boshlab nogironlik idoralararo elektron ma'lumotlar almashinuvi asosida nogironlik belgilari aniq ko'rinib turgan, anatomik nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, noxush klinik prognozga ega kasalliklar va asoratlarda fuqarolarning ishtirokisiz belgilanadi;

b) Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Musayev) 2023-yil 1-aprelga qadar nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o'tish konsepsiyasi loyihasini kiritsin, unda:

fuqarolarning mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasidan kelib chiqib nogironlikni belgilash amaliyotidan voz kechib, uning o'rniga jahon standartlari asosida nogironlikni belgilashga hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning hayotga ijtimoiy moslashuvi va ularning sog'lig'ini qayta tiklashga;

nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay formatlardagi axborot texnologiyalaridan, imo-ishora tilidan hamda muloqotning boshqa muqobil shakllaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratishga e'tibor qaratilsin.

6. "Yangi O'zbekiston" massivlarini rivojlantirish va aholining uy-joyga bo'lgan talabini qondirish maqsadida 2023-yilda:

"Yangi O'zbekiston" massivlari va 161 ta boshqa massivlarda, jumladan, xususiy pudrat tashkilotlari tomonidan yangi uy-joylar qurishning yillik hajmlari 1,6 baravarga oshirilib, 90 mingga yetkazilsin. Bunda, uy-joy hamda ijtimoiy va savdo obyektlarini loyihalashtirish va qurishda avtotransport vositalarining turargohlari, shu jumladan ko'p qavatli va erosti avtoturargohlar majburiy ravishda barpo etilishi ta'minlansin;

32 ming nafar fuqaroga bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari, shuningdek 11 ming nafar fuqaroga boshlang'ich badal va foiz to'lovlarining bir qismini qoplashga subsidiyalar ajratish uchun Davlat budjetidan yetarli mablag'lar yo'naltirilsin;

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

aholini bozor tamoyillari asosida ipoteka kreditlari orqali uy-joy bilan ta’minlashning yangi tartibi doirasida mulk huquqi asosida uy-joyga ega boʻlmagan fuqarolar uchun Toshkent viloyatida tajriba-sinov tariqasida “Mening birinchi uyim” dasturi ishlab chiqilib, amalga oshirilsin;

xalqaro va mahalliy fond birjalarida “Oʻzbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi” AJning ipoteka obligatsiyalarini chiqarish va joylashtirish uchun kompaniyaning ustav fondi 100 mln AQSh dollari ekvivalentiga yetkazilsin. Bunda, ipoteka obligatsiyalarini joylashtirish hisobiga jalb qilingan mablagʻlar ipoteka kreditlari uchun resurs sifatida banklarga joylashtirilsin.

7. Tashabbusli budjet amaliyotini hamda mahallalarning moliyaviy mustaqilligini kengaytirish maqsadida:

2023-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun Davlat budjetidan 8 trillion soʻm, shundan “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari uchun 4 trillion soʻm yoʻnaltirilsin;

2023-yilda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish boʻyicha loyihalar dasturlari doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun Davlat budjetidan 4 trillion soʻm ajratilsin.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev) uch oy muddatda loyihalarni jamoatchilik fikri va “Ochiq budjet” portalida toʻplangan ovozlar asosida moliyalashtirishning samarali tizimini yaratsin va amaliyotga kiritsin.

Bunda, ovoz berish jarayonlarini xolis va ma’muriy aralashuvlarsiz tashkillashtirishning aniq mexanizmlarini joriy qilishga alohida e’tibor qaratilsin.

8. Ta’lim sifatini oshirish, sohani ilgʻor xorijiy tajriba asosida isloh qilish maqsadida:

a) 2023-yil 1-sentabrdan boshlab har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy oʻrta ta’lim muassasasida oʻquvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga oʻrgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yoʻlga qoʻyilsin;

b) 2023/2024 oʻquv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy oʻrta ta’lim muassasalarida oʻquvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ koʻnikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa boʻlib ishlash, tadqiqotchilik kabi koʻnikmalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan ta’lim dasturlari amaliyotga kiritilsin.

Bunda:

umumiy oʻrta ta’lim muassasalarining 1 — 4-sinflarida oʻquvchilarni ilgʻor xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar boʻyicha oʻqitish;

5 — 9-sinflarda oʻquvchilarga umumta’lim fanlaridan tayanch bilimlar berish;

10-11-sinf oʻquvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos boʻlgan ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish amaliyoti joriy qilinsin;

v) 2023/2024 oʻquv yilidan boshlab respublikaning barcha viloyatlari va Toshkent shahrida boshlangʻich sinf oʻquvchilarini bepul ovqat bilan ta’minlash yoʻlga qoʻyilsin.

Bunda, ovqat turlari oʻquvchilarning yoshi va sogʻligʻi holatiga koʻra me’yorlangan holda yetkazib berilishi hamda sanitariya talablariga javob berishi ta’minlansin;

g) 2023-yil 1-apreldan boshlab maktabgacha ta’lim qamrovini kengaytirish maqsadida:

yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini koʻp kvartirali uylarning noturar qavatlarida yoki yakka tartibda qurilgan uy-joylarni sotib olish va keyinchalik ularni ta’mirlash hamda jihozlash orqali tashkil etishga ruxsat etilsin;

davlat-xususiy sheriklik loyihasi doirasida ijaraga berilgan yer uchastkasida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti binosini qurgan xususiy sherik tomonidan ushbu binoning mazkur loyiha uchun bank kreditlari boʻyicha garovga qoʻyilishiga oid cheklovlar bekor qilinsin;

d) professional ta’lim tizimini rivojlantirish, mehnat bozori va ish beruvchilarning talablariga mos boʻlgan malakali oʻrta boʻgʻin kadrlarini tayyorlash maqsadida:

2023/2024 oʻquv yilidan boshlab davlat grantlari kollej va texnikumlarning dual ta’lim shakli boʻyicha ham ajratilsin;

2023-yil 1-sentabrga qadar Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida malakali xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Yevropa kasbiy ta’lim va kasbga oʻqitish sifatini ta’minlash tizimi talablariga toʻliq javob beradigan 1 tadan namunaviy professional ta’lim muassasalari faoliyati yoʻlga qoʻyilsin;

e) 2023-yil 1-apreldan boshlab:

professional ta’lim muassasasi pedagoglarining bazaviy tarif stavkalari mos ravishda umumiy oʻrta ta’lim muassasasi pedagoglarining bazaviy tarif stavkalariga;

professional ta’lim muassasasi birinchi va ikkinchi malaka toifasiga ega boʻlgan, malaka toifasiga ega boʻlmagan oliy ma’lumotli hamda oliy ma’lumotga ega boʻlmagan ishlab chiqarish ta’limi ustalarining bazaviy tarif stavkalari tegishincha umumiy oʻrta ta’lim muassasasi birinchi va ikkinchi malaka toifali oʻqituvchisi, oliy ma’lumotli oʻqituvchisi hamda oʻrta maxsus ma’lumotli oʻqituvchisining bazaviy tarif stavkalariga tenglashtirilsin.

9. Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yaqinlashtirish va fuqarolarni sifatli tibbiy xizmatlar bilan ta’minlash, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, shuningdek, bemorlarga qoʻshimcha qulayliklar yaratish maqsadida:

a) Sogʻliqni saqlash vazirligi (A. Inoyatov):

2023-yilda 30 ta oilaviy poliklinika, 110 ta oilaviy shifokor punkti va 520 tagacha ixcham mahalla tibbiyot punktlarini tashkil etish;

18 — 40 yoshli 12,6 million nafar aholini profilaktik koʻrikdan oʻtkazish, 40 yosh va undan katta yoshdagi surunkali kasalligi boʻlmagan 6,3 million nafar aholini yurak qon-tomir kasalliklari va qandli diabet, 3 million nafar aholini onkologik kasalliklarni erta aniqlash boʻyicha skrining tekshiruvlaridan oʻtkazish;

spinal mushak atrofiyasi bilan kasallangan 112 nafar bolani dori vositalari bilan ta’minlash;

250 nafardan ortiq zaif eshituvchi bolada koxlear implantatsiya operatsiyalarini oʻtkazish, shuningdek, bunday operatsiyalar oʻtkazilgan 132 nafar bolada nutq protsessorlarini almashtirish choralarini koʻrsin;

b) vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari va boshqa tibbiy ma’lumotnomalarni berish bosqichma-bosqich elektron shaklga oʻtkazilsin. Bunda:

vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari va boshqa tibbiy ma’lumotnomalarni berish Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida — 2023-yil 1-iyuldan boshlab, Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand viloyatlarida — 2023-yil 1-oktabrdan boshlab, respublikaning boshqa hududlarida — 2024-yil 1-yanvardan boshlab elektron shaklga oʻtkazilsin.

2024-yil 1-yanvardan boshlab vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari va boshqa tibbiy ma’lumotnomalarni qogʻoz shaklda talab qilish taqiqlansin;

2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

v) 2023-yil 1-iyuldan boshlab Toshkent shahrida bosqichma-bosqich davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy etilsin;

g) 2023-yil yakuniga qadar nogironligi bo‘lgan shaxslarni ambulator va statsionar sharoitda bepul tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya choralari bilan qamrab olish ko‘lami 30 ming nafarga yetkazilsin.

10. Aholi orasida yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy faollik darajasini oshirish maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi “To‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi” umummilliy harakati yo‘lga qo‘yilsin:

aholiga smartfon va mobil ilovalar yordamida o‘z sog‘lig‘i va ovqatlanishini nazorat qilishni o‘rgatish, to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha mobil ilova yaratish;

bolalarga mo‘ljallangan nosog‘lom oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar, bolalar oziq-ovqat mahsulotlari hamda energetiklar, dori vositalari, biologik faol moddalar reklamasiga talab va cheklovlarni kuchaytirish;

ta’lim muassasalarida bolalar va yoshlar uchun tavsiya etilmaydigan mahsulotlar, shu jumladan tarkibida shakar, tuz, transyog‘lar miqdori yuqori bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari, ta’m va rang beruvchi qo‘shimchalar ro‘yxatini tasdiqlash va ularning iste’molini kamaytirish;

mahalliy mahsulotlar turlaridan kelib chiqib, aholining har bir xavf guruhi va kasallik turlari uchun alohida-alohida sog‘lom ovqatlanishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish;

yoshi, tana tuzilishi, turmush tarzi va kasalliklarga moyilligidan kelib chiqib, bolalar, kattalar va keksalar uchun qisqa to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha tavsiyalar, sog‘lomlashtirish mashqlari va gigiyena qoidalari to‘plamini yaratish;

ish joylarida xodimlarning jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishi va sog‘lom ovqatlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

11. 2023-yil 1-apreldan boshlab O‘zbekiston Respublikasida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqiga doir tasdiqnoma amal qilish muddati davomida chet el fuqarolari xorijdan olib kelingan shaxsiy avtotransport vositasini olib chiqib ketish muddatini uzrli sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborganda, qonunchilik hujjatlarida belgilangan yig‘imni to‘lashdan ozod etilsin.

12. Tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish maqsadida 2023-yil 1-iyuldan boshlab tadbirkorlik subyektlariga nisbatan yangi turdagi javobgarlik va jazo choralarini joriy etishga uch yillik moratoriy o‘rnatilsin.

Adliya vazirligi (A. Tashkulov) Bosh prokuratura (N. Yo‘ldoshev) bilan birgalikda bir oy muddatda savdo yoki xizmat ko‘rsatish qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni ma’muriy yurisdiksiyaga o‘tkazish orqali bekor qilishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

13. Qishloq xo‘jaligini suv resurslari bilan barqaror ta’minlash maqsadida 2023-yilda:

suv resurslarini boshqarishda uzluksiz tizimni yo‘lga qo‘yish hamda suvni tejaydigan raqamli texnologiyalarni joriy qilish hisobiga suvni yetkazib berishdagi tabiiy yo‘qotishlar hajmi 10 foizgacha kamaytirilishi;

qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliq yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi bo‘yicha soliq stavkasini oshirish orqali suv solig‘i bo‘yicha tushumlarning bir qismi tumanlarda sug‘orish xizmatlarini rivojlantirish, ariq, zovur va kanallarni betonlashga yo‘naltirilishi ta’minlansin.

Suv xo‘jaligi vazirligi (Sh. Xamrayev) 2023-yil yakuniga qadar:

a) suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish, zarur irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini o‘z vaqtida amalga oshirish orqali kamida 7 mlrd metr kub suv iqtisod qilinishini hamda 300 ming gektar maydonda takroriy ekinlarni sug‘orishga yo‘naltirilishini ta’minlasin;

b) Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev) bilan birgalikda:

suvning hisobini ochiq-oshkora yuritish tizimini joriy etish maqsadida 13 mingta suv xo‘jaligi obyektlarini raqamlashtirish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni Davlat budjeti mablag‘lari va xalqaro moliya institutlari grantlari hisobidan moliyalashtirish;

16 ta yirik nasos stansiyalarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun kiritsin.

14. Adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash borasida quyidagilarni nazarda tutuvchi qonun loyihalari belgilangan tartibda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilsin:

jinoyatlarni tergov qilish jarayonida “Xabeas korpus” institutini qo‘llash amaliyotini yanada kengaytirish maqsadida tintuv o‘tkazish, telefon so‘zlashuvlarini eshitib turish va mulkni xatlashga sanksiya berish vakolatini prokurorlardan sudlarga o‘tkazish;

jinoyat ishini sudlarga ayblov xulosasi (ayblov dalolatnomasi) va himoyachi fikri bilan birga taqdim etish tartibini joriy etish;

advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani olish uchun yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lish talabini bekor qilish.

Oliy sud (B. Islamov), Adliya vazirligi (A. Tashkulov) va Bosh prokuratura (N. Yo‘ldoshev) mazkur bandda nazarda tutilgan masalalar bo‘yicha tegishli qonunlar loyihalarining Davlat dasturida belgilangan muddatlarda ishlab chiqilib, kiritilishini ta’minlasin.

15. Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasini “shahar avtomobillar emas, balki piyodalar uchun” g‘oyasi asosida isloh qilish maqsadida:

a) 2023-yil 1-apreldan boshlab Toshkent va Nukus shaharlarida hamda viloyatlar va tumanlarning markazlarida transport vositalari harakatlanishining eng yuqori tezligi soatiga 70 kilometrdan 60 kilometrgacha tushirilsin;

b) 2023-yil 1-dekabrdan boshlab transport vositasining egasiga transport vositasini boshqarish huquqi o‘tkazilgan shaxs bilan birgalikda tegishli huquqni belgilovchi hujjatni (ishonchnoma va boshqalar) taqdim etgan holda, davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati organlarini transport vositasini boshqarish huquqini o‘tkazganligi haqida xabardor qilish huquqi berilsin.

Bunda, xabarnoma olingan kundan boshlab vakolatli organ tomonidan Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining Yagona avtomatlashtirilgan axborot-tahlil tizimiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish hamda ushbu transport vositasida sodir etilgan yo‘l harakati qoidalari buzilganligi uchun boshqarish huquqi o‘tkazilgan shaxsga nisbatan ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirish tartibi joriy etilishi belgilansin.

16. Adliya vazirligi, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” umummilliy harakati:

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

Davlat dasturi amalga oshirilishining borishini tizimli monitoring qilish, uni sifatli va oʻz vaqtida bajarish uchun qoʻshimcha choralar koʻrish boʻyicha tavsiyalarni ishlab chiqsin;

Davlat dasturida nazarda tutilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining sifatli va oʻz vaqtida ishlab chiqilishi hamda kelishilishida amaliy yordam koʻrsatib borsin;

Davlat dasturini amalga oshirish yakunlariga bagʻishlangan axborot-tahliliy sharhlarni tayyorlash, ularni xorijiy tillarda e’lon qilish va keng tarqatishni ta’minlasin;

monitoring natijalari toʻgʻrisidagi axborotni har oyda 2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish boʻyicha respublika komissiyasiga kiritib borsin.

17. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A. Xadjayev) va Oʻzbekiston Milliy axborot agentligi (A. Koʻchimov) muntazam ravishda Davlat dasturining maqsad va vazifalari, shu jumladan mashhur davlat arboblari, tajribali siyosatshunos, huquqshunos, iqtisodchi va boshqa mutaxassislar ishtirokida keng sharhlab borilishini hamda uning mazmun-mohiyati jamoatchilikka tushuntirilishini ta’minlasin.

18. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib vazirliklar va idoralar rahbarlari, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish 2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish boʻyicha respublika komissiyasiga yuklansin.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida har chorakda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritib borilsin.

**Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2023-yil 28-fevral,
PF-27-son

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining
2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son
Farmoniga
ILOVA

## 2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid

DAVLAT DASTURI

| T/r | Ustuvor yoʻnalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ij |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **I. INSON QADRINI YUKSALTIRISh VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISh ORQALI XALQPARVAR DAVLAT BARPO** | | | | | | |
| | **1-maqsad: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch boʻgʻiniga ayla** | | | | | | |
| 1. | Fuqarolarning **oʻz mahallasi hayotidagi ishtirokini kuchaytirish** hamda davlat organlari va mahallalar oʻrtasida toʻgʻridan toʻgʻri aloqalarni yoʻlga qoʻyish. | “**Raqamli mahalla**” **markazini** tashkil etish hamda **“Ijtimoiy mahalla” axborot tizimini** joriy etish. Bunda:<br><br>mahalladagi aholi va tadbirkorlarning mavjud muammo va kamchiliklarini “**xonadonbay**” oʻrganish boʻyicha **soʻrovnomalarni** oʻtkazish, **natijalarini** tegishli davlat organlari va tashkilotlariga yuborish hamda koʻrilgan choralar toʻgʻrisidagi ma’lumotlarni **axborot tizimiga kiritish**;<br><br>“Temir daftar”ga kiritilgan oilalar hamda “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga koʻrsatilgan yordam haqidagi ma’lumotlarni axborot tizimiga kiritib borish;<br><br>mahallalarning hududi, maydoni, infratuzilmasi, chegarasi aks etgan xaritasi, xonadonlarning **joylashuvi**, **raqamlari** va koʻcha nomlarining **yagona bazasini** yuritish;<br><br>“**Ijtimoiy mahalla**” **axborot tizimi** hamda “**Elektron hukumat**” **tizimining** idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali **40 turdagi** ma’lumotlarning yagona bazasini yuritish nazarda tutiladi. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil aprel | Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish, hokim yordamchilari faoliyatini qoʻllab-quvvatlash, xotin-qizlar faoliyatini qoʻllab-quvvatlash, yoshlar faoliyatini qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmalari mablagʻlari | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Qoʻchqorov** | Kambagʻallikni bandlik<br><br>**B. Mus**<br><br>Iqtisodiyot va r<br><br>**Sh. Kuc**<br><br>Raqamli tex vazi<br><br>**Sh. Sher**<br><br>Qoraqalp Respublika Kengashi, v Toshkent shah |

2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2. | Joylarda **ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda mahallalar rolini** oshirish. | **1. Mahallalarga** tegishli hududdagi tuman (shahar) mahalliy Kengashlari sessiyalari **kun tartibiga ko‘rib chiqish uchun taklif kiritish, tuman (shahar) mahalliy Kengashlarining qarorlari loyihalarini ishlab chiqish va muhokama qilishda ishtirok etish** huquqini taqdim etish.<br><br>**2.** Har bir mahallaning **“o‘sish nuqtalari”** va ularda yashovchi aholining ehtiyojidan kelib chiqib, **mahallaning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish** maqsadida mahallalar qoshida tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish.<br><br>**3.** Mahallalarda **“Tadbirkorlar kengashlari”ni tashkil etish**, ularning maqomi va vazifalarini belgilash. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil may | - | Oliy Majlis Senati<br><br>**T. Narbayeva**<br><br>*(kelishuv asosida)* | Kambag‘allikni<br>bandlik<br><br>**B. Mus**<br><br>Adliya v<br><br>**A. Tash**<br><br>Qoraqalp<br>Respublika<br>Kengashi, v<br>Toshkent shah |
| 3. | Mahallalarning **moddiy-texnika bazasini** mustahkamlash. | **1.** Mahallalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha **2023 — 2025-yillarga mo‘ljallangan manzilli dasturni** ishlab chiqish. Bunda:<br><br>xizmat binosida muammosi bo‘lgan **2 327 ta** mahallalar uchun **xizmat binolarini qurish**, **jihozlash, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta’minlash**;<br><br>binolarni qurishda mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli hamda profilaktika inspektorlari uchun alohida xonalar bo‘lishiga e’tibor qaratish nazarda tutiladi. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil aprel | Budjetda mahallalar infratuzilma-sini rivojlantirish uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar doirasida, homiylik, davlat-xususiy sheriklik, “Mahalla” jamg‘armasi mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Qo‘chqorov** | Kambag‘allikni<br>bandlik<br><br>**B. Mus**<br><br>Iqtisodiyot va r<br><br>**Sh. Kuc**<br><br>Qurilish va uy-j<br>xo‘jaligi<br><br>**B. Zak**<br><br>Raqamli tex<br>vazi<br><br>**Sh. Sher**<br><br>Ichki ishla<br><br>**P. Bobo**<br><br>Yoshlar siyos<br>vazi<br><br>**A. Ikra** |
| 4. | Mahalla institutini **jamiyat hayotida tutgan o‘rnini xalqaro hamjamiyatga yetkazish.** | **1.** “**Mahalla institutining O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini qaror topishidagi o‘rni va roli: kecha, bugun va ertaga**” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazish.<br><br>**2.** Mamlakatimizda yuqori darajadagi **Xalqar� forumni** tashkil etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil iyul | Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi mablag‘lari | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Xodjayev** | Kambag‘allikni<br>bandlik<br><br>**B. Mus**<br><br>Tashqi ishl<br><br>**B. Sai**<br><br>Adliya v<br><br>**A. Tash**<br><br>Iqtisodiyot va r<br><br>**Sh. Kuc**<br><br>Raqamli tex<br>vazi<br><br>**Sh. Sher**<br><br>Ichki ishla<br><br>**P. Bobo**<br><br>Yoshlar siyos<br>vazi<br><br>**A. Ikra** |
| | | **3.** Mamlakatimizda o‘tkazilishi rejalashtir�lgan yuqori darajadagi **Xalqaro forumga** xorijiy ishtirokchilarni jalb qilish maqsadida tadbirning konsepsiyasi va dasturini **rus va ingliz tillarida** Tashqi ishlar vazirligiga tadbirdan **3 oy oldin** taqdim qilish.<br><br>**4.** Xalqaro forumda xorijiy mutaxassislar ishtirokini ta’minlash.<br><br>**5.** “Mahalla institutini jamiyat hayotida tutgan o‘rni” **Xalqaro forumini o‘tkazish**. | | 2023-yil may<br><br>2023-yil sentyabr | | | |
| **2-maqsad: Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo‘g‘inga aylantirish** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 5. | **Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlarining** mahallalardagi muammolarni hal qilishdagi rolini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, **aholining turmush darajasini oshirish boʻyicha doimiy komissiyalar faoliyatini** kuchaytirish. | **1**. Tajriba tariqasida xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar **Kengashlarining komissiya raislarini doimiy asosda faoliyat olib borishlarini** tashkil etish.<br><br>**2.** Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda va uni amalga oshirishda xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlarining **doimiy komissiyalari ishtirokini ta’minlash.** | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil sentyabr | - | Oliy Majlis Senati<br>**T. Narbayeva,**<br>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**R. Davletov** | Adliya v<br>**A. Tash**<br>Oliy Majlis Sen<br>*(kelishuv*<br>Davlat bo<br>akader<br>**A. Bekm** |
| **3-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish** | | | | | | | |
| 6. | Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining **institutsional asoslarini takomillashtirish orqali** ularga yuklatilgan ortiqcha vazifa va funksiyalarni maqbullashtirish, ular faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish. | **1.** Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan oʻtkazish.<br><br>**2.** Mahalliy davlat hokimiyati organlarining takrorlanadigan vazifa va funksiyalarini qayta koʻrib chiqish va maqbullashtirish. | Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar | 2023-yil sentyabr | - | Oliy Majlis Senati<br>**T. Narbayeva,**<br>Oliy Majlis Qonunchilik palatasi<br>**N. Ismoilov,**<br>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**Gʻ. Mirzayev,**<br>**R. Davletov** | Adliya v<br>**A. Tash**<br>Iqtisodiyot va r<br>**Sh. Kuc** |
| **4-maqsad: Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “fuqarolarga xizmat qilishga yoʻnaltirish” tamoyili asosida transformatsiya qilis** | | | | | | | |
| 7. | Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining **institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini** takomillashtirish. | **1.** Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini tashkil etish va tugatish asoslari va mezonlarini ularning vakolatlari hamda javobgarlik sohalarini aniqlashtirgan holda belgilash. | Qonun loyihasi | 2023-yil aprel | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**Gʻ. Mirzayev,**<br>**R. Davletov,**<br>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br>**Sh. Vafayev** | Adliya v<br>**A. Tash**<br>Davlat xizmatir<br>agen<br>**O. Xas**<br>Iqtisodiyot va r<br>**Sh. Kuc**<br>Davlat bo<br>akader<br>**A. Bekm** |
| | | **2.** Davlat boshqaruvi organlari xodimlarining ma’muriy tartib-taomillarni qoʻllash borasidagi malakalarini oshirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Hisob-kitoblarga koʻra | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**Gʻ. Mirzayev** | Adliya v<br>**A. Tash**<br>Davlat bo<br>akader<br>**A. Bekm** |
| **5-maqsad: Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish** | | | | | | | |
| 8. | Vazirlik va idoralarning funksiya va vazifalarini qayta koʻrib chiqish. | **1.** Vazirlik va idoralarning takrorlanadigan **168 ta** vazifa va **301 ta** funksiyalarini maqbullashtirish nuqtai nazardan koʻrib chiqish.<br><br>**2.** Faoliyati samarasiz deb topilgan va davlat-hokimiyat vakolatlari berilgan **40 dan ortiq** idoralararo kollegial organlarni maqbullashtirish, zarurat boʻlganda ularning vazifalarini tegishli idoralarga oʻtkazish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil oktyabr | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**R. Davletov,**<br>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br>**Sh. Vafayev** | Adliya v<br>**A. Tash**<br>Davlat xizmatir<br>agen<br>**O. Xas**<br>vazirlik va |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 9. | Davlat boshqaruvi tizimida **adliya organlarining huquqiy maqomi**ni qonun hujjati bilan mustahkamlash. | Huquq ijodkorligi sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash hamda huquqiy targʻibotni amalga oshirish, shuningdek, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlariga soʻzsiz rioya etilishini ta’minlash borasida adliya organlari faoliyatini mustahkamlashga qaratilgan qonun loyihasini ishlab chiqish. | Qonun loyihasi | 2023-yil sentyabr | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**D. Kadirov** | Adliya v<br>**A. Tash** |
| | **6-maqsad: Davlat boshqaruvi tizimida ma’muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish** | | | | | | |
| 10. | **Yangi Oʻzbekiston ma’muriy islohotlarining ikkinchi bosqichi** doirasida hududlardagi boshqaruv tizimini isloh qilish. | Mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatini chuqur tahlil qilgan holda ularning faoliyatini takomillashtirish va tashkiliy tuzilmasini maqbullashtirish, boʻysunuv tizimini qayta koʻrib chiqish boʻyicha takliflarni tayyorlash. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari | 2023-yil aprel | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**B. Mavlonov** | Adliya v<br>**A. Tash**<br>Qoraqalp Respublika Kengashi, v Toshkent shah |
| 11. | Davlat funksiyalarini xususiy sektorga oʻtkazish orqali ish jarayonlarini maqbullashtirish. | **Davlat boshqaruvi organlari kesimida davlat funksiyalarini xususiy sektorga oʻtkazish boʻyicha chora-tadbirlar dasturi** loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirish. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari | 2023-yil noyabr | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**B. Mavlonov,**<br>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br>**Sh. Vafayev** | Iqtisodiyot va m<br>**Sh. Kuc**<br>Adliya v<br>**A. Tash** |
| | **7-maqsad: Mamlakatimizdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish** | | | | | | |
| 12. | Parlament palatalari qoʻmitalarini nazorat-tahlil jarayonlariga yanada kengroq jalb etilishini ta’minlash. | Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qoʻmitalariga hukumat a’zolarining, davlat organlari, xoʻjalik boshqaruvi organlari rahbarlarining oʻz faoliyatiga doir masalalar yuzasidan parlament eshituvlarini oʻtkazish tashabbusi huquqini berish boʻyicha takliflar kiritish. | Axborot-tahliliy ma’lumotnoma | 2023-yil iyun | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**R. Davletov** | Qonunchilik m parlament t insti<br>**F. Otax**<br>Oliy Majlis Q pala<br>*(kelishuv* |
| | **8-maqsad: Norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat’iy ijrosini ta’minlash** | | | | | | |
| 13. | **Huquqiy eksperiment** oʻtkazish tartibi, asosi va mexanizmini aniq belgilash. | **“Huquqiy eksperiment asoslari toʻgʻrisida”gi qonun** loyihasini ishlab chiqish. Bunda:<br>huquqiy eksperimentning asosiy prinsiplari, uni tashkil etish va oʻtkazish tamoyillari (shartlari), davomiylik muddati;<br>huquqiy eksperiment joriy etish mumkin boʻlmagan sohalar;<br>huquqiy eksperiment oʻtkazish shakllari va usullari va boshqa masalalar nazarda tutiladi. | Qonun loyihasi | 2023-yil oktyabr | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**R. Davletov** | Adliya v<br>**A. Tash** |
| | **9-maqsad: “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokratiyani ba** | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 14. | Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish sohasida davlat xizmatlari koʻrsatish tizimini yanada takomillashtirish. | **1.** Nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy koʻrik natijalarini tibbiyot muassasalari tomonidan **“FHDYning yagona elektron arxivi” axborot tizimiga real vaqt rejimida joylashtirish** tartibini yoʻlga qoʻyish.<br><br>**2.** Fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlari bilan bogʻliq boʻlgan sud qarorlarini ular qonuniy kuchga kirgan kuni ushbu qarorni qabul qilgan sud organi tomonidan “FHDYning yagona elektron arxivi” axborot tizimiga elektron tizim orqali yuborish hamda sudda koʻrib chiqilayotgan dalolatnoma yozuvlarini axborot tizimidan yuklab olish orqali, qarorlarni oʻzaro bogʻlash tartibini joriy etish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil iyul | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezide?ti Administratsiyasi<br><br>**D. Kadirov** | Adliya v<br>**A. Tash**<br>Sogʻliqni saq<br>**A. Inoy**<br>Oliy<br>**B. Islo** |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 15. | Fuqarolar va davlat idoralari o'rtasidagi munosabatlarda **ortiqcha byurokratiya holatlariga barham berish** ishlarini davom ettirish. | **1.** Davlat xizmatlarini qo'shimcha to'lov asosida **xizmat ko'rsatuvchi xodimni fuqaroning yashash joyiga chaqirish orqali maxsus texnik qurilmalar yordamida ko'rsatish** amaliyotini kengaytirish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil aprel | Hisob-kitoblarga ko'ra | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**D. Kadirov** | Adliya v<br><br>**A. Tash**<br><br>davlat xizmatir vazirlik va |
| | | **2. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari va boshqa tibbiy ma'lumotnomalar berilishini** bosqichma-bosqich **elektron shaklga o'tkazish.** | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil aprel | Hisob-kitoblarga ko'ra | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**L. To'ychiyev** | Sog'liqni saq<br><br>**A. Inoy**<br><br>Raqamli tex vazir<br><br>**Sh. Sher** |
| | | **3.** Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatadigan davlat organlari va tashkilotlarida ko'rsatilgan **xizmat sifati, xodimlarning muomala madaniyati va boshqa ko'rsatkichlarni** maxsus elektron moslamalar orqali baholash tizimini yo'lga qo'yish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil aprel | Hisob-kitoblarga ko'ra | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**D. Kadirov** | Davlat xizmatla davlat org tashkil<br><br>Adliya v<br><br>**A. Tash**<br><br>Raqamli tex vazir<br><br>**Sh. Sher** |
| | | **4.** Aholi va tadbirkorlik subyektlariga subsidiya ajratish bilan bog'liq barcha xizmatlar bosqichma-bosqich yagona elektron platformaga o'tkazish hamda subsidiyalarni ajratishning maqsadga muvofiqligini elektron platforma orqali onlayn tekshirish tizimi yo'lga qo'yish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil avgust | Hisob-kitoblarga ko'ra | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Qo'chqorov** | Iqtisodiyot va r<br><br>**Sh. Kuc**<br><br>Adliya v<br><br>**A. Tash**<br><br>Raqamli tex vazir<br><br>**Sh. Sher** |
| | | **5. Davlat xizmatlari markazlari** orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sonini **300 taga**, **Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali** orqali ko'rsatiladigan xizmatlar sonini **570 taga** yetkazish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil may | Hisob-kitoblarga ko'ra | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**R. Gulyamov,**<br><br>**D. Kadirov** | Adliya v<br><br>**A. Tash**<br><br>Raqamli tex vazir<br><br>**Sh. Sher** |
| | | **6.** Ayrim faoliyat turlari bo'yicha litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olmasdan tegishli faoliyatni boshlash hamda uch oylik "o'tish va moslashish davri"ni belgilaydigan **"Biznesga litsenziyasiz kirish" (Zero Licensing) rejimini** joriy etish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil may | Hisob-kitoblarga ko'ra | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Qo'chqorov** | Adliya v<br><br>**A. Tash**<br><br>Savdo-sanc<br><br>**D. Vax**<br><br>Raqamli tex vazir<br><br>**Sh. Sher** |
| | | **7.** Kamida **10 ta** davlat xizmatlarini ariza beruvchining xohishiga ko'ra qo'shimcha to'lov evaziga **tezlashtirilgan tartibda ko'rsatish** amaliyotini yo'lga qo'yish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil may | Hisob-kitoblarga ko'ra | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**D. Kadirov** | Adliya v<br><br>**A. Tash** |
| | | **8.** Elektr, gaz va suv sarfi hisoblagichlarini qiyoslashdan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlarini **proaktiv tarzda** ko'rsatish (xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning o'z tashabbusi bilan fuqaro murojaatini kutmasdan) yuzasidan taklif berish amaliyotini yo'lga qo'yish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil may | Hisob-kitoblarga ko'ra | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**R. Gulyamov** | Energetik<br><br>**J. Mirzama**<br><br>Adliya v<br><br>**A. Tash** |

2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 16. | Elektron davlat xizmatlarining ulushini **55 foiz**ga yetkazish. | **1.** 2023-yil mobaynida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joriy etiladigan va optimizatsiya qilinadigan **40 ta** davlat xizmatlari va servislari ro‘yxatini tasdiqlash. | Chora-tadbirlar rejasi | 2023-yil mart | Hisob-kitoblarga ko‘ra Ijrochilar mablag‘lari loyiha-texnik hujjatlariga muvofiq | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**R. Gulyamov** | Raqamli tex vazi<br>**Sh. Sher**<br>Adliya v<br>**A. Tash**<br>manfaatdor idor |
| | | **2. Talabalarni yotoqxonaga onlayn joylashish** imkoniyatlarini beruvchi, Davlat xizmatlari markazi va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatiladigan bepul elektron xizmatni joriy etish. Bunda:<br>yotoqxonalar hisobini yuritish reyestrini ishlab chiqish;<br>**ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni ustuvor ravishda joylashtirish**;<br>Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali **elektron ariza berish va to‘lovlarni amalga oshirish** imkoniyatini yaratish nazarda tutiladi. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil may | | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**O. Abduraxmonov** | Oliy ta’lim innovatsiya<br>**I. Abdura**<br>Raqamli tex vazi<br>**Sh. Sher**<br>Adliya v<br>**A. Tash** |
| | | 3. Quyidagi davlat xizmatlarini Davlat xizmatlari markazi va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish:<br>**kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqasi** va moddiy yordam tayinlash uchun onlayn ariza tizimini joriy etish;<br>sport turlari bo‘yicha **sport unvonlari va sport razryadlarini berish.** | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil iyun | | | Iqtisodiyot va r<br>**Sh. Kuc**<br>Adliya v<br>**A. Tash**<br>Raqamli tex vazi<br>**Sh. Sher**<br>Yoshlar siyos vazi<br>**A. Ikra** |
| **10-maqsad: Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish** | | | | | | | |
| 17. | Davlat fuqarolik xizmatini zamonaviy standartlar asosida raqamlashtirish maqsadida **“Davlat xizmatchisi” mobil dasturini** joriy etish. | **1.** Davlat fuqarolik xizmatchisining yuridik hamda jismoniy shaxslar bilan **ish faoliyatiga oid munosabatlarini raqamlashtirish** yuzasidan tahlil o‘tkazish.<br>**2.** Texnik topshiriq hujjatini shakllantirish va moliyalasht�rish manbalarini aniqlash.<br>**3.** Mobil ilovani ishlab chiqish va **“Elektron hukumat” tizimining Idoralararo integratsiyalashuv platformasi** bilan ilova o‘rtasida elektron axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish.<br>**4.** “Davlat xizmatchisi” mobil dasturini ishga tushirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil mart<br>2023-yil may<br>2023-yil iyul<br>2023-yil avgust | Davlat xizmatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**K. Kuranbayev** | Davlat xizmatir agen<br>**O. Xas**<br>Raqamli tex vazi<br>**Sh. Sher**<br>Kambag‘allikni bandlik<br>**B. Mus** |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 18. | Davlat fuqarolik xizmatchilarining rahbarlik lavozimlariga istiqbolli va salohiyatli boshqaruv kadrlarini saralash va tayyorlash bo'yicha **“100 nafar eng ilg'or yetakchi” dasturini** yo'lga quyish. | **1.** Ishchi guruh tuzish, dasturni tashkil etish yuzasidan xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganish.<br><br>**2.** Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.<br><br>Bunda:<br><br>har ikki yilda **100 nafar** salohiyatli boshqaruv kadrlari tanlov asosida saralab olinadi;<br><br>ular uchun **maxsus o'quv dasturi va xorijda stajirovka** tashkil etiladi.<br><br>**3. “100 nafar ilg'or yetakchi”** dasturini tashkil etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil sentyabr | Hisob-kitoblarga ko'ra<br><br>Davlat xizmatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari,<br><br>“El-yurt umidi” jamg'armasi mablag'lari, xalqaro moliya institutlarining grantlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**K. Kuranbayev** | Davlat xizmatir agen<br><br>**O. Xas**<br><br>Davlat bo akader<br><br>**A. Bekm**<br><br>Oliy ta'lir innovatsiya<br><br>**I. Abdura**<br><br>Kambag'allikni bandlik<br><br>**B. Mu** |
| 19. | Fuqarolarning davlat fuqarolik xizmatiga kirish imkoniyatlarini kengaytirish. | Davlat fuqarolik xizmatchilarining vakant lavozimlariga ochiq tanlovni o'tkazishda shaffoflikni oshirish va inson omilini qisqartirish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil iyun | - | Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**K. Kuranbayev** | Davlat xizmatir agen<br><br>**O. Xas** |
| **11-maqsad: Xalq bilan muloqot mexanizmlarini takomillashtirish** | | | | | | | |
| 20. | Hukumatning **hududlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish**, hududlarda aholi tomonidan ko'tarilayotgan **dolzarb muammolarni tezkor hal etish** maqsadida **har oyda kamida bir marotaba** Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida Hukumat a'zolari ishtirokida **“Hukumat kuni”ni o'tkazib borish amaliyotini** yo'lga qo'yish. | **1. “Hukumat kuni”**ni hududlar kesimida o'tkazish bo'yicha reja-grafikni va unda ishtirok etuvchi mansabdor shaxslar ro'yxatini tasdiqlash.<br><br>**2. “Hukumat kuni”** doirasida muhokama qilinadigan muammolarni tahlil qilish va uni Hukumat a'zolariga o'rganish uchun yetkazish bo'yicha sohalar kesimidagi doimiy ishchi guruhlarni shakllantirish.<br><br>**3. “Hukumat kuni”**ni o'tkazish tartibini tasdiqlash. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil aprel | - | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**A. Aripov** | Adliya v<br><br>**A. Tash**<br><br>Qoraqalp Respublika Kengashi, v Toshkent shah |
| **12-maqsad: Ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 21. | Vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan **aholi e’tirozlariga sabab boʻlayotgan tizimli masalalarni aniqlash** va ularga yechim topish ishlari sifatini oshirish, aholi muammolari va murojaatlar bilan ishlashda **jamoatchilik nazoratini** kuchaytirish. | Xalq qabulxonalari huzurida taniqli huquqshunoslar, mahalla raislari, ziyolilar, ijodkorlar, jurnalistlar va blogerlardan tarkib topgan **“Xalq ovozi” jamoatchilik kengashlari** faoliyatini yoʻlga qoʻyish, bunda:<br><br>eng koʻp e’tirozlarga sabab boʻlayotgan **masalalarni muhokama qilish**, ular boʻyicha tegishli **davlat idoralari rahbarlarining hisobotini eshitish** hamda mazkur **muammolarning bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini oʻrnatish**;<br><br>joylarda **ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash** maqsadida jamoatchilik orasida mamlakatimizda **jid�iy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish** yuzasidan amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan tadbirlar boʻyicha targʻibot ishlarini tashkil etish;<br><br>hududlardagi oliy ta’lim muassasalari, yetakchi sotsiolog, psixolog olimlar va boshqa mutaxassislarni jalb qilgan holda **jamiyatdagi, aholi kayfiyatidagi oʻzgarish** va talablarni oʻrganib borish;<br><br>fuqarolar tomonidan koʻtarilayotgan masalalarni tegishli soha mutaxassislari va jamoatchilik vakillari ishtirokida muhokama qilish, ular bilan tushuntirish ishlari olib borish, **e’tirozlarga sabab boʻlayotgan holatlar boʻyicha tegishli tashkilotlarga axborot va takliflar** kiritish. | Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar | 2023-yil may | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**U. Muxammadiyev** | Adliya v<br><br>**A. Tash**<br><br>Qoraqalp Respublikasi, Toshkent sha qabulxo |
| 22. | **Davlat organlari ustidan jamoatchilik nazorati** oʻrnatishning zamonaviy shakllarini joriy etish. | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini ishlab chiqish. Bunda:<br><br>mahalla raisi tomonidan aholi e’tirozlariga eng koʻp sabab boʻlayotgan muammolarni aniqlash maqsadida muntazam ravishda muhokamalar oʻtkazish;<br><br>**har oyda** mahalla kengashida tegishli davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining amalga oshirilgan ishlar boʻyicha axborotlarini eshitish;<br><br>“**Mahalla nazorati” va “mahalla raisi soʻrovi”** institutlarini joriy qilish;<br><br>davlat organlariga murojaatlar va soʻrovlar berish, davlat organlarining ochiq hay’at majlislarida ishtirok etish, jamoatchilik muhokamasi, eshituvi, monitoringi, ekspertizasini oʻtkazish, jamoatchilik fikrini oʻrganish tartiblarini joriy etish nazarda tutiladi. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil avgust | - | Oliy Majlis Senati Raisi<br><br>**T. Narbayeva**<br><br>*(kelishuv asosida)* | Kambagʻallikni bandlik<br><br>**B. Mus**<br><br>Adliya v<br><br>**A. Tash**<br><br>manfaatdor idora |
| **II. MAMLAKATIMIZDA ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI TAMOYILLARINI TARAQQIYOTNING ENG ASOSIY VA ZARUR ShARTIGA AYLAN** | | | | | | | |
| **13-maqsad: Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 23. | Baholash faoliyatida davlat sud ekspertizasi va boshqa tashkilotlar uchun umumiy bo‘lgan baholash qoidalari, mezonlari va tartiblarini belgilagan holda baholash obyektlarining, shu jumladan **bino va inshootlar qurishning zamonaviy tendensiyalarini hisobga olish** tartibini joriy etish. | **1.** Baholash va baholash yo‘nalishidagi sud ekspertlik faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni **to‘liq xatlovdan o‘tkazgan** holda, ilg‘or xalqaro tajribadan kelib chiqib, **o‘zaro muvofiqlashtirilishini** ta’minlash. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil sentyabr | Hisob-kitoblarga ko‘ra | Vazirlar Mahkamasi<br>**J. Qo‘chqorov** | Adliya v<br>**A. Tash**<br>Davlat aktivlar agen<br>**A. Ort** |
| | | **2.** Baholashning xalqaro standartlari tamoyillari asosida **yagona yondashuvni va bozor konyunkturasini hisobga olishni ta’minlaydigan Yagona milliy baholash standartlarini** takomillashtirish. | Idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil oktyabr | Hisob-kitoblarga ko‘ra<br>Davlat budjeti mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari<br>(ekspertlarni jalb qilish uchun) | | Davlat aktivlar agen<br>**A. Ort**<br>Iqtisodiyot va m<br>**Sh. Kuc**<br>Adliya v<br>**A. Tash** |
| **14-maqsad: Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta’minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida** | | | | | | | |
| 24. | Bolalarga nisbatan **tazyiq va zo‘ravonlik o‘tkazishning oldini olish**ga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish. | **1.** Bolalarni **tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish**da davlat organlarining vakolatlarini aniq belgilash.<br>**2.** Bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash, tazyiqlarga chek qo‘yish mexanizmini takomillashtirish.<br>**3.** Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan bolalarga **kompleks yordam** ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish. | Qonun loyihasi | 2023-yil iyul | - | Bola huquqlari bo‘yicha vakil<br>(Bolalar ombudsmani)<br>**A. Yunusova** | Adliya v<br>**A. Tash**<br>Bosh pro<br>**N. Yo‘ld**<br>Ichki ishla<br>**P. Bobo**<br>Maktabgacha ta’limv<br>**X. Uma** |
| 25. | **Voyaga yetmaganlar**ga nisbatan jinoiy javobgarlikni yanada liberallashtirish. | 18 yoshga to‘lgunga qadar sodir etgan jinoyati (o‘ta og‘ir jinoyatlar bundan mustasno) uchun shaxs jazoni o‘tab bo‘lganidan so‘ng sudlanmagan hisoblanishiga oid normani qonunchilikka kiritish orqali bunday shaxslarning sudlanganlik tamg‘asidan xalos bo‘lishini ta’minla�. | Qonun loyihasi | 2023-yil may | - | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**D. Kadirov** | Bosh pro<br>**N. Yo‘ld**<br>Oliy<br>**B. Isla**<br>Adliya v<br>**A. Tash**<br>manfaatdor idor |
| 26. | Nizolarni muqobil hal etishda **mediatsiya institutini rivojlantirish** orqali fuqarolarning buzilgan huquqlarini soddalashtirilgan tartibda himoya qilish. | **1.** Mediatsiya qo‘llaniladigan sohalar doirasini kengaytirish.<br>**2.** Mediatorga doir talablarni qayta ko‘rib chiqish.<br>**3.** Hakamlik sudlari faoliyati hamda hakamlik muhokamasini xalqaro standartlarga moslashtirish. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi | 2023-yil sentyabr | - | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**D. Kadirov** | Adliya v<br>**A. Tash**<br>Oliy<br>**B. Isla**<br>manfaatdor idor |
| 27. | Ayrim toifadagi **jinoiy qilmishlar uchun javobgarlikni liberallashtirish**. | **1. Uchuvchisiz uchadigan apparatlar**ni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini qonunga xilof ravishda olib kirish, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish harakatlarini **birinchi marta sodir etganlik** uchun ma’muriy javobgarlikni belgilash.<br>**2.** Ushbu toifadagi huquqbuzarliklar uchun Jinoyat kodeksida belgilangan sanksiyalarga **muqobil jazo** choralarini kiritish. | Qonun loyihasi | 2023-yil iyul | - | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**D. Kadirov** | Bojxona q<br>**A. Mav**<br>Bosh pro<br>**N. Yo‘ld**<br>Davlat xavfsi<br>**A. Az**<br>Ichki ishla<br>**P. Bobo**<br>Oliy<br>**B. Isla**<br>Adliya v<br>**A. Tash**<br>manfaatdor idor |

[2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida]

[ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI]

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **15-maqsad: Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik sub odil sudlovga erishish darajasini oshirish** | | | | | | | |
| 28. | **Sud-tergov jarayonida** ishtirokchilarning huquq va erkinliklarini **zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari** yutuqlaridan foydalangan holda samarali himoya qilishni ta'minlash. | Elektron (raqamli) dalil tushunchasi, elektron dalillarni aniqlash, to'plash, taqdim qilish, tekshirish, baho berish, qayd etish, saqlash tartiblari va bu jarayonda protsess ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilash. | Qonun loyihasi | 2023-yil avgust | - | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**D. Kadirov** | Oliy<br>**B. Isla**<br>Bosh pro<br>**N. Yo'ld**<br>Ichki ishla<br>**P. Bobc**<br>manfaatdoı idor |
| 29. | **Ma'muriy sudga murojaat qilish** imkoniyatlarini yanada kengaytirish. | Fuqarolar o'zlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan davlat boshqaruvi organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, ular mansabdor shaxslarining qaror va harakatlari (harakatsizligi) ustidan ma'muriy **sudlarga murojaat qilganda undiriladigan davlat boji stavkalarini pasaytirish.** | Qonun loyihasi | 2023-yil iyun | - | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**D. Kadirov** | Oliy<br>**B. Isla**<br>Iqtisodiyot va r<br>**Sh. Kuc**<br>Bosh pro<br>**N. Yo'ld**<br>Adliya v<br>**A. Tash**<br>manfaatdoı idor |
| 30. | Jinoyatlarni tergov qilish jarayonida **"Xabeas korpus" institutini qo'llash** amaliyotini yanada kengaytirish. | **1.** Tintuv o'tkazish, telefon so'zlashuvini eshitish va mulkni xatlash protsessual harakatlarini amalga oshirish uchun **sanksiya berish vakolatini prokurorlardan sudlarga o'tkazish.**<br>**2.** Jinoyat ishini sudlarga ayblov xulosasi (ayblov dalolatnomasi) va **himoyachi fikri bilan birga taqdim etish** tartibini joriy etish. | Qonun loyihasi | 2023-yil iyul | - | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**D. Kadirov** | Oliy<br>**B. Isla**<br>Bosh pro<br>**N. Yo'ld**<br>Davlat xavfsi<br>**A. Az**<br>Ichki ishla<br>**P. Bobc**<br>Adliya v<br>**A. Tash** |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 31. | Fuqarolarning harakatlanish erkinligi bilan bog'liq **huquqlarini cheklashda qonuniylikni ta'minlash** ustidan nazoratni kuchaytirish. | Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni **hisobga olish bo'yicha yagona elektron reyestrni shakllantirish**, yuritish va undagi ma'lumotlardan foydalanish tartibini quyidagilarni nazarda tutgan holda belgilash:<br><br>vakolatli organlar tomonidan Yagona elektron reyestrni shakllantirish, yuritish va undagi ma'lumotlardan foydalanish, jumladan tegishli ma'lumotlarni harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarning qarindoshlari yoki advokatlariga taqdim etish tartibi;<br><br>Yagona e�ektron reyestrni qonunchilikda belgilangan talablar va shartlarda ishlab chiqish, takomillashtirish va keyinchalik texnik qo'llab-quvvatlash bo'yicha buyurtmachi hamda axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha **vakolatli organni belgilash**;<br><br>Yagona elektron reyestrni ishlab chiqish va shakllantirish bilan bog'liq **xarajatlarni moliyalashtirish** tartibi;<br><br>Mas'ul vazirlik va idoralarning xodimlarini yangi tartibning mazmun-mohiyati va harakatlanish erkinligi cheklangan **shaxslar bilan ishlash** masalalari bo'yicha o'qitish. | Vazirlar Mahkamasi qarori | 2023-yil may | Mas'ul vazirlik va idoralarning budjet hamda budjetdan tashqari mablag'lari | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**D. Kadirov** | Ichki ishla<br><br>**P. Bobc**<br><br>Bosh pro<br><br>**N. Yo'ld**<br><br>Sog'liqni saq<br><br>**A. Inoy**<br><br>Davlat xavfsi<br><br>**A. Az**<br><br>Adliya v<br><br>**A. Tash** |
| **16-maqsad: Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va etishning samarali tizimini yaratish** | | | | | | | |
| 32. | Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi **tashkiliy-boshqaruv faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish**. | **1.** Ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida **yagona boshqaruv tizimi**ni yaratish.<br><br>**2.** Hududiy tergov bo'linmalari xodimlarini ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash va rag'batlantirish tartibini takomillashtirish.<br><br>**3.** Jinoyatlarni tergov qilish jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish. | Normativ-huquqiy-hujjat loyihasi | 2023-yil avgust | - | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**D. Kadirov** | Ichki ishla<br><br>**P. Bobc**<br><br>Bosh pro<br><br>**N. Yo'ld**<br><br>Adliya v<br><br>**A. Tash** |
| 33. | Transport vositasida yo'l-harakati **qoidalarini buzganlik holatlarini aniqlash tartibini** takomillashtirish. | Transport vositasi mulkdorining transport vositasini boshqarish huquqi o'tkazilgan shaxs bilan **birgalikdagi murojaatiga** ko'ra vakolatli organ tomonidan **huquqbuzarliklarni qayd etish tizimiga** tegishli o'zgartirishlar kiritish hamda ushbu transport vositasida sodir etilgan **yo'l harakati qoidalari buzilganligi uchun boshqarish huquqi o'tkazilgan shaxsga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani rasmiylashtirish** tartibini joriy etish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil noyabr | Hisob-kitoblarga ko'ra | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**D. Kadirov** | Ichki ishla<br><br>**P. Bobc**<br><br>Oliy<br><br>**B. Isla**<br><br>Adliya v<br><br>**A. Tash**<br><br>manfaatdor idora |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 34. | Yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash sohasini **“shahar avtomobillar emas, balki piyodalar uchun”** gʻoyasi asosida isloh qilish. | **Nukus va Toshkent shaharlarida hamda viloyatlar va tumanlar markazlarida** transport vositalari harakatlanishining **eng yuqori tezligini soatiga 70 kilometrdan 60 kilometrgacha** tushirish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil mart | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**D. Kadirov** | Ichki ishla<br>**P. Bobo**<br>manfaatdor<br>idora |
| **17-maqsad: Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimm erkinliklarini samarali himoya qilishga yoʻnaltirish** | | | | | | | |
| 35. | Sudga qadar ish yuritishning barcha bosqichida **shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish.** | **1.** Tergovga qadar tekshiruv jarayoniga jalb etilgan shaxslarning **protsessual maqomini aniqlashtirish**, ushbu shaxslar gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvoh huquq va majburiyatlaridan foydalanishini belgilash.<br>**2.** Tergovga qadar tekshiruv bosqichida ayrim tergov harakatlarini oʻtkazishga ruxsat berish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil sentyabr | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**D. Kadirov** | Bosh pr<br>**N. Yoʻld**<br>Ichki ishla<br>**P. Bobo**<br>manfaatdor<br>idora |
| **18-maqsad: Sud va boshqa organlar hujjatlarining oʻz vaqtida va toʻliq ijrosini taʼminlash** | | | | | | | |
| 36. | Sud hujjatlarining ijrosini taʼminlash maqsadida **undiruvni mulkiy huquqlarga qaratish** mexanizmlarining samaradorligini oshirish. | Undiruvni uzoq muddatli koʻchmas mulk ijarasi huquqiga, yer uchastkalariga boʻlgan huquqlarga, intellektual mulk obyektlariga boʻlgan mulkiy huquqlarga qaratish tartibining huquqiy asoslarini mustahkamlash. | Normativ-huquqiy-hujjat loyihasi | 2023-yil oktyabr | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**D. Kadirov** | Bosh pr<br>**N. Yoʻld**<br>Adliya v<br>**A. Tash**<br>manfaatdor<br>idora |
| 37. | Ijro ishini yuritishning **soddalashtirilgan tartibi**ni yanada takomillashtirish. | Ijro ishini yuritishning soddalashtirilgan tartibini qarzdor jismoniy shaxslardan **kommunal xizmatlar uchun qarzdorlikni undirish** toʻgʻrisidagi sud hujjatlariga nisbatan tatbiq etish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil oktyabr | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**D. Kadirov** | Bosh pr<br>**N. Yoʻld**<br>manfaatdor<br>idora |
| **19-maqsad: Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, s aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga boʻlgan talabini toʻliq qondirish** | | | | | | | |
| 38. | Advok�tura instituti jozibadorligini oshirish orqali **sohaga yosh kadrlarni jalb etish**ning samarali tizimini yaratish. | Advokaturaga ishga qabul qilish tartibini yanada soddalashtirish, shu jumladan advokatlik faoliyati bilan shugʻullanish huquqini beruvchi litsenziyani olish uchun yuridik mutaxassislik boʻyicha **kamida ikki yillik ish stajiga ega boʻlish talabi**ni bekor qilish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil mart | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**D. Kadirov** | Adliya v<br>**A. Tash** |
| **20-maqsad: Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar oʻrtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirisl** | | | | | | | |
| 39. | Aholining barcha qatlami uchun moʻljallangan **“Yuridik kutubxona”** elektron tizimini va uning mobil ilovasini yaratish. | Huquqiy manba sifatida aholi foydalanishi uchun elektron kutubxonada:<br>yuridik adabiyotlarni sohalar kesimida (fuqarolik, mehnat, jinoyat va boshqa) tizimga joylashtirish;<br>foydalanuvchilarga kitoblarni **bepul koʻchirib olish**, **foydalanish, nusxa koʻchirish** imkoniyatini yaratish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil iyul | Dastlabki hisob-kitoblarga koʻra **300 mln. soʻm**<br>(budjetdan tashqari mablagʻlar va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar) | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**D. Kadirov** | Adliya v<br>**A. Tash**<br>manfaatdor<br>idora |
| **III. MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH VA YUQORI OʻSISh SURʼATLARINI TAʼMINLASh** | | | | | | | |
| **21-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahs barobar (1750 dollardan 2800 dollarga) va 2030-yilga borib aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshiris “daromadi oʻrtachadan yuqori boʻlgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 40. | Iqtisodiyotning yuqori oʻsish sur’atlarini saqlab qolish, **makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash**. | **1.** 2023-yilda iqtisodiy oʻsish sur’atlari **5,3 foizda** boʻlishini ta’minlash. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**R. Gulyamov,**<br>Vazirlar Mahkamasi<br>**J. Qoʻchqorov,**<br>**J. Xodjayev** | Iqtisodiyot va n<br>**Sh. Kuc**<br>Investitsiyala savdo v<br>**L. Kud**<br>Markazi<br>**M. Nurm**<br>manfaatdoı idora<br>Qoraqalp Respublika Kengashi, v Toshkent shah |
| | | **2.** Yillik **inflatsiya** darajasini **9,5-10 foizgacha** pasaytirish.<br>Bunda:<br>makroprudensial nazorat mexanizmlari va vositalarini takomillashtirish, ularni **pul-kredit siyosati** chora-tadbirlari bilan muvofiqlashtirish orqali **inflatsiya darajasini pasaytirish** va **moliyaviy barqarorlik**ni ta’minlash;<br>narx shakllanishining bozor mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish va tartibga solinadigan tovarlar narxini qayta koʻrib chiqish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi<br>Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | - | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**R. Gulyamov,**<br>Vazirlar Mahkamasi<br>**J. Qoʻchqorov** | Markazi<br>**M. Nurm**<br>Iqtisodiyot va n<br>**Sh. Kuc**<br>manfaatdoı idora |
| | | **3. Davlat qarzi**ni boshqarishda yillik yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori **4,5 mlrd dollardan** oshmasligini ta’minlash.<br>Bunda, davlat tashqi qarzi mablagʻlarini asosan muhim ijtimoiy soha va **infratuzilma**ni rivojlantirishga yoʻnaltirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | - | Vazirlar Mahkamasi<br>**J. Qoʻchqorov,**<br>**J. Xodjayev** | Iqtisodiyot va n<br>**Sh. Kuc**<br>Investitsiyala savdo v<br>**L. Kud**<br>manfaatdoı idora |
| **22-maqsad: Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini dav sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobar oshirish** | | | | | | | |
| 41. | Respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va aholiga **neft-gaz mahsulotlarining uzluksiz yetkazib berilishini ta’minlash**. | **1.** 2023-yil uchun respublika boʻyicha uglevodorod resurslarini **qazib chiqarish prognoz hajmlari** bajarilishini ta’minlash.<br>**2.** Mahalliy zavodlarda **suyultirilgan gaz va neft mahsulotlari ishlab chiqarish** hajmlarini kengaytirish.<br>**3. 1500 kv.km** maydonda **3D** seysmik ishlar oʻtkazish, **20 ta** yangi maydonni burgʻilashga kiritish, **50 ta** quduq bu�gʻilash, **15 ta** yangi konlarda geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, yuqoridagi ishlar natijasida **35,3 mlrd kub metr** tabiiy gaz va **1,2 mln tn suyuq** uglevodorodlar zaxirasini oʻstirish. | Tashkiliy-huquqiy choralar | 2023-yil mart | Qazib chiqarish va ishlab chiqarish korxonalari mablagʻlari | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br>**Sh. Vafayev** | Energetik<br>**J. Mirzama**<br>Togʻ-kon sanoa vazir<br>**B. Isla**<br>“Oʻzbekne |

2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 42. | **“Yoshlik” mis konini** o‘zlashtirishning birinchi bosqichi yakuniga yetkazib, **60 million tonna** rudani qayta ishlash quvvatiga ega **3-misni boyitish fabrikasini** ishga tushirish. | **1. “**Yoshlik” mis konini o‘zlashtirish” investitsiya loyihasi doirasida rejalashtirilgan **“Yoshlik I” va 3-misni boyitish fabrikasi** uchun asosiy texnologik uskunalarni qurilish maydonchasiga yetkazish.<br><br>**2.** Rudani qayta ishlash quvvati **60 million tonna bo‘lgan 3-misni** boyitish fabrikasida qurilish-montaj ishlarini yakunlash va uning 1-liniyasini ishg� tushirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil avgust<br><br>2023-yil sentyabr | Hisob-kitoblarga ko‘ra<br><br>(tashabbuskorlarning o‘z mablag‘lari, tijorat banklari krediti) | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br><br>**Sh. Vafayev** | Tog‘-kon sanoa vazi<br><br>**B. Isla**<br><br>“Olmaliq Investitsiyala savdo v<br><br>**L. Kud**<br><br>Iqtisodiyot va r<br><br>**Sh. Kuc** |
| 43. | **Olmaliqda misni boyitish fabrikasi** va **Mis eritish zavodi** loyihalarini boshlash. | **1.** “Olmaliq KMK” AJ negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha **Hukumat qarori loyihasini** ishlab chiqish**.**<br><br>**2.** “Olmaliq KMK” AJ tomonidan **mis eritish quvvatlarini kengaytirish**ning asosiy muhandislik-loyihalash (Basic Engineering) ishlarini yakunlash.<br><br>**3.** “Olmaliq KMK” AJ mis eritish quvvatlarini kengaytirishning dastlabki texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishni yakunlash. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil avgust<br><br>2023-yil mart<br><br>2023-yil iyun | Hisob-kitoblarga ko‘ra<br><br>(tashabbuskorlarning o‘z mablag‘lari, tijorat banklari krediti, xorijiy investitsiyalar) | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br><br>**Sh. Vafayev** | Tog‘-kon sanoa vazi<br><br>**B. Isla**<br><br>“Olmaliq Investitsiyala savdo v<br><br>**L. Kud**<br><br>Iqtisodiyot va r<br><br>**Sh. Kuc** |
| 44. | Navoiydagi Pistali konida **4 million tonna oltin rudasini** qayta ishlash majmuasining qurilishini yakunlash. | **1.** Investitsiya loyihasi doirasida ko‘zda tutilgan “Pistali” koni va “6-gidrometallurgiya zavodi” (“6-GMZ”) uchun asosiy tog‘-kon va boyitish texnologik uskunalarini sotib olish ishlarini yakunlash.<br><br>**2.** “Navoiy KMK” AJ tomonidan “Pistali” koni va **“6-GMZ”** sanoat obyektlarining tashqi elektr ta’minoti qurilishi ishlarini yakunlash.<br><br>**3.** “Navoiy KMK” AJ tomonidan **“Pistali”** koni va 6-GMZ qurilish ishlarining 1-bosqichini yakunlash va foydalanishga topshirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil iyun<br><br>2023-yil avgust<br><br>2023-yil sentyabr | Hisob-kitoblarga ko‘ra<br><br>(tashabbuskorlarning o‘z mablag‘lari, tijorat banklari krediti, xorijiy investitsiyalar) | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br><br>**Sh. Vafayev,**<br><br>Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Qo‘chqorov** | Tog‘-kon sanoa vazi<br><br>**B. Isla**<br><br>“Navoiy KMK” A milliy elektr ta Investitsiyala savdo v<br><br>**L. Kud**<br><br>Iqtisodiyot va r<br><br>**Sh. Kuc** |
| 45. | Kimyo sanoati, elektr texnikasi, transport va energetika sohalarida nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan birga, alohida **muhandislik maktablarini** tashkil qilish. | Kimyo sanoati va energetika sohasida nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan muhandislik maktablari tashkil qilish bo‘yicha muzokaralar olib borish hamda kelishuvlarga erishish. | Amaliy chora-tadbirlar rejasi | 2023-yil 1-avgust | Energetika vazirligi va uning tarkibidagi tashkilotlar, “O‘zkimyosanoat” AJ hamda investorlar mablag‘lari | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**R. Gulyamov**<br><br>Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Xodjayev** | Energetik<br><br>**J. Mirzama**<br><br>Investitsiyala savdo v<br><br>**L. Kud**<br><br>“O‘zkimyos |
| 46. | Umumiy qiymati **8 mlrd** dollarlik **300 dan** ziyod loyihani ishga tushirish va **40 ta yangi yirik loyihani** amalga oshirishni boshlash. | **1.** Loyihalar kesimida **tarmoq jadvallari** ishlab chiqilib, har bir ishga tushadigan loyihaga mas’ullarni biriktirilishi va tasdiqlanishini ta’minlash hamda ijroga qaratish.<br><br>**2.** Tarmoq jadvallarida belgilangan chora-tadbirlarning natijadorligini tahlil qilib borish, mavjud muammoli masalalarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rish, Hukumat komissiyasi yig‘ilishlarida muhokama qilib borishni tashkil etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil mart<br><br>har oy yakunida | - | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Xodjayev** | Investitsiyala savdo v<br><br>**L. Kud**<br><br>Qoraqalp Respublika Kengashi, v Toshkent shah |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 47. | **Avtomobilsozlik va qishloq xoʻjaligi mashinasozligida** investitsiya loyihalarini ishga tushirish. | **1. Jizzax viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarishni kengaytirish**, **elektromobillar** va gibrid avtomobillar ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish.<br><br>**2.** Chirchiq shahrida Qishloq xoʻjalik texnikalari klasteri negizida **100 ot kuchiga ega** milliy traktorni ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Hisob-kitoblarga koʻra<br><br>(tashabbuskorlarning oʻz mablagʻlari, tijorat banklari krediti, xorijiy investitsiyalar) | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Xodjayev** | Investitsiyala savdo v<br><br>**L. Kud**<br><br>"Oʻzavtosa<br><br>Andijon viloya<br><br>Jizzax viloyat<br><br>Toshkent viloy |
| 48. | **Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish** dasturini amalga oshirish. | Oziq-ovqat xomashyo bazasini kengaytirish va mahsulotlar hajmini bosqichma-bosqich oshirish dasturini ishlab chiqish. Bunda:<br><br>2023-yil yakuniga qadar **68,5 trln.** soʻmlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishini ta'minlash;<br><br>qayta ishlash quvvatlarini meva-sabzavot mahsulotlarida **3,2 mln** tonnaga, sut mahsulotlarida **3,0 mln** tonnaga va goʻsht mahsulotlarida **450 ming** tonnaga yetkazish;<br><br>**25 turdagi** oziq-ovqat mahsulotlari importini qisqartirish uchun qiymati **7,8 trln. soʻmlik 619 ta** loyihalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023-yil mart | Hisob-kitoblarga koʻra | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**B. Mavlonov,**<br><br>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br><br>**Sh. Vafayev** | Qishloq xoʻja<br><br>**A. Vo**<br><br>Investitsiyala savdo v<br><br>**L. Kud** |
| 49. | **Yangi xalqaro standartlarni** amaliyotga joriy etish. | Yengil sanoat, charm-poyabzal, elektrotexnika, qurilish va oziq-ovqat hamda qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga tegishli xalqaro va Yevropa standartlarni amaliyotga joriy etish. Bunda:<br><br>**1 400 dan** ortiq xalqaro va Yevropa standartlari tahlilini oʻtkazish;<br><br>dolzarb boʻlgan standartlar roʻyxatini shakllantirish;<br><br>roʻyxat asosida standartlar xaridi va davlat tiliga tarjimasi bilan bogʻliq xarajatlarni Eksportni ragʻbatlantirish agentligi tomonidan moliyalashtirish;<br><br>xarid qilingan va davlat tiliga tarjima qilingan xalqaro va Yevropa standartlarini Oʻzbekiston Respublikasida qabul qilish va amaliyotga joriy etishni nazarda tutish. | Chora-tadbirlar rejasi | 2023-yil dekabr | Hisob-kitoblarga koʻra | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Xodjayev** | Investitsiyala savdo v<br><br>**L. Kud**<br><br>Qurilish va uy-j xoʻjaligi v<br><br>**B. Zak**<br><br>Qishloq xoʻja<br><br>**A. Vo**<br><br>"Oʻztoʻqimac uyushmasi, "Oʻz uyushmasi, "O uyush |
| 50. | Elektrotexnika sanoati mahsulotlari **ishlab chiqarish hajmini 22 trln. soʻmdan oshirish** va eksport hajmini **1 mlrd dollarga yetkazish.** | Elektrotexnika sanoatidagi tadbirkorlik subyektlari bilan yaqin hamkorlikda ishlab, ularning ishlab chiqarish va eksport hajmlarini **1 mlrd dollarga** yetkazish boʻyicha "yoʻl xaritasi"ni ishlab chiqish. | "Yoʻl xaritasi" | 2023-yil mart | - | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Xodjayev** | Investitsiyala savdo v<br><br>**L. Kud**<br><br>Togʻ-kon sanoa vazir<br><br>**B. Isla**<br><br>"Oʻzeltexsanoa |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 51. | Qurilish materiallari sanoati mahsulotlarining **yangi turlarini ishlab chiqarishni oʻzlashtirish**. | Qurilish sohasida yangi mahsulotlar turlarini, shu jumladan, zamonaviy uslubda gulqogʻoz, polimer va kompozitli materiallar asosida geotekstil, geomembrana, katta oʻlchamli granit va marmar plitalari, keramogranit, yorugʻlikni qaytaruvchi turli rangdagi qalin va mustahkam oynalar va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish boʻyicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Hisob-kitoblarga koʻra | Vazirlar Mahkamasi<br>**J. Xodjayev** | Investitsiyala savdo v<br>**L. Kud**<br>Iqtisodiyot va r<br>**Sh. Kuc**<br>"Oʻzsanoatqurili uyush |
| 52. | Kalava ipni qayta ishlash darajasini oshirish, **qayta ishlash zanjirining keyingi bosqichlaridagi mavjud boʻshliqlarni toʻldirish**. | Sohadagi qoʻshimcha qiymat zanjiri boʻshliqlarini toʻldirish maqsadida Andijon, Qashqadaryo, Namangan va Toshkent viloyatlarida toʻqimachilik sohasiga ixtisoslashtirilgan zamonaviy ishlab chiqarishlarni yoʻlga qoʻyish. | "Yoʻl xaritasi" | 2023-yil may | Loyiha tashabbuskorlari mablagʻlari, tijorat banklari kreditlari | Vazirlar Mahkamasi<br>**J. Xodjayev** | Investitsiyala savdo v<br>**L. Kud**<br>Iqtisodiyot va r<br>**Sh. Kuc**<br>"Oʻztoʻqimac uyush |
| 53. | Toʻqimachilik sanoatida mahsulot **eksporti hajmini 1,4 barobarga oshirish**. | Yuqori qoʻshimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport geografiyasini kengaytirish, jumladan GSP+ prefrensiyalaridan keng foydalangan holda eksport hajmini **4,5 mlrd. dollarga** yetkazish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | - | Vazirlar Mahkamasi<br>**J. Xodjayev** | Investitsiyala savdo v<br>**L. Kud**<br>"Oʻztoʻqimac uyush |
| 54. | **Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash** maqsadida yogʻ-moy sanoati tarmogʻida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini **8 foizga** oshirish. | **1.** Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini **6,5 trln soʻmga** yetkazish.<br>**2. 30 mln dollarlik** yogʻ-moy mahsulotlari eksportini amalga oshirish.<br>**3.** Investitsiya dasturi doirasida **14 mln dollar** oʻzlashtirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Loyiha tashabbuskorlari mablagʻlari | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**B. Mavlonov** | Qishloq xoʻja<br>**A. Vo** |
| 55. | Mahalliy ishlab chiqarish korxonalari oʻrtasida **tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi aloqalarini yanada kengaytirish.** | Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkalarini va respublika **sanoat yarmarkasini yuqori darajada oʻtkazish**. Bunda:<br>hududiy va respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkalarida tarmoqlar va yirik sanoat korxonalari tomonidan asosiy faoliyat turi boʻyicha **kooperatsiya asosida oʻzlashtirish tavsiya etiladigan tovarlar namunalarini namoyish etish** va yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat kooperatsiyasiga qiziqish bildirgan xususiy korxonalarni **"shatakka olish"**;<br>yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan qurilish materiallari, metallokonstruksiya va uskunalar, elektrotexnika mahsulotlari, tez ishdan chiquvchi va doimiy foydalaniladigan butlovchi qismlarni oʻzlashtirish hamda sotib olish boʻyicha mahalliy korxonalar bilan hamkorlik shartnomalarini imzolash nazarda tutiladi. | Chora-tadbirlar rejasi | 2023-yil aprel | - | Vazirlar Mahkamasi<br>**J. Xodjayev** | Investitsiyala savdo v<br>**L. Kud**<br>Iqtisodiyot va r<br>**Sh. Kuc** |

2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 56. | Ichki va tashqi bozorlarda **talab yuqori bo‘lgan yangi turdagi, respublikada ishlab chiqarilmaydigan mahsulotlarni mahalliylashtirish**. | **1.** Hududlarning salohiyati, geografik joylashuvi hamda tabiiy va mineral resurslarini hisobga olgan holda yangi turdagi yuqori texnologik, zamonaviy, energiya tejamkor, innovatsiya va fan yutuqlariga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish dasturini ishlab chiqish.<br>**2.** Mahalliylashtirish dasturi doirasida kamida **60 trln so‘m**lik mahsulotlar ishlab chiqarish. | Chora-tadbirlar dasturi<br>Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil mart<br>2023-yil davomida | - | Vazirlar Mahkamasi<br>**J. Xodjayev** | Investitsiyala savdo v<br>**L. Kud**<br>Iqtisodiyot va r<br>**Sh. Kuc**<br>Oliy ta’lin innovatsiya<br>**I. Abdura** |
| 57. | **Ipak mahsulotlari ishlab chiqarish** hajmini **1,5 barobarga,** eksportni **1,2 barobarga** oshirish va investitsiyalarni keng jalb qilish. | **1. 2,8 trln** so‘mlik ipak mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish.<br>**2.** Sohada **25 mln dollarlik 16 ta loyihani** ishga tushirish.<br>**3.** Ipak mahsulotlarining eksportini **110 mln** dollarga yetkazish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | - | Vazirlar Mahkamasi<br>**J. Xodjayev** | Investitsiyala savdo v<br>**L. Kud**<br>Qishloq xo‘ja<br>**A. Vo** |
| **23-maqsad: Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg‘or xorijiy kompaniyala�ni keng jalb q** | | | | | | | |
| 58. | **Gaz zaxiralarini ko‘paytirish** maqsadida geologiya-qidiruv ishlari bo‘yicha **o‘n yillik dastur**ni amalga oshirishni boshlash. | Respublikada **2023 — 2033-yillarda uglevodorod xomashyosi zaxiralarini ko‘paytirishga qaratilgan geologiya-qidiruvi ishlari dasturi**ni ishlab chiqish.<br>Bunda:<br>yangi texnologiyalarni joriy etib, ilk bor chuqur qatlamlarda gaz qazib chiqarish;<br>Ustyurtning yuqori istiqbolga ega chuqur qatlamlarida qidiruv ishlariga nufuzli xorijiy investorlarni jalb qilish nazarda tutiladi. | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi | 2023-yil may | Yillik dasturda ajratilgan limitlar doirasida<br>Davlat budjeti mablag‘lari,<br>tijorat banklari kreditlari, xorijiy investitsiyalar, korxonalarning o‘z mablag‘lari | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br>**Sh. Vafayev** | Tog‘-kon sanoa vazi<br>**B. Isla**<br>Energetik<br>**J. Mirzama**<br>“O‘zbekne<br>Iqtisodiyot va r<br>**Sh. Kuc**<br>Investitsiyala savdo v<br>**L. Kud** |
| 59. | Gaz qazib chiqarishga ixtisoslashgan **korxonalar** faoliyatini o‘rganish. | Gaz qazib chiqarishga ixtisoslashgan **korxonalarni** o‘rganib chiqish va natijalariga asosan ishlayotgan korxonalar bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish yuzasidan takliflar kiritish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | - | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br>**Sh. Vafayev** | Tog‘-kon sanoa vazi<br>**B. Isla**<br>Investitsiyala savdo v<br>**L. Kud**<br>Energetik<br>**J. Mirzama**<br>Adliya v<br>**A. Tash** |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 60. | Geologiya-qidiruv sohasiga **raqamli texnologiyalarni joriy etish**, mahalliy xomashyolarni sanoat usulida chuqur qayta ishlash texnologiyalarini yaratish. | **1.** Uglevodorodga istiqbolli maydonlar bo'yicha seysmik ma'lumotlarni yuqori aniqlikdagi zamonaviy **"Paradigm"** dasturiy ta'minotida qayta ishlash hamda **18 ta** maydonning **3D modelini yaratish**.<br><br>**2.** Zamonaviy GIS texnologiyalaridan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasining **1:500 000** miqyosdagi raqamli gidrogeologik xaritasini yaratish.<br><br>**3.** Angren konida **kaolin** va Gushsoyda **alunit** ma'danlaridan **alyuminiy oksidi**ni ajratib olishning texnologik sxemasini ishlab chiqish.<br><br>**4.** Mahalliy xomashyolar asosida bo'yoq tayyorlashda ishlatiladigan **50 foizli** vodorod peroksidi va natriy perekarbonatini ishlab chiqarish texnologiyasini o'zlashtirish.<br><br>**5. Plazmatron** yordamida reniy metall kukunini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | - | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br><br>**Sh. Vafayev** | Tog'-kon sanoa vazi<br><br>**B. Isla**<br><br>Oliy ta'lin innovatsiya<br><br>**I. Abdura**<br><br>"Olmaliq |
| 61. | Iqtisodiyotning drayver tarmoqlari uchun **mineral xomashyo bazasi zaxiralarini ko'paytirish.** | Geologiya sohasini istiqbolli rivojlantirish hamda olib borilayotgan geologiya-qidiruv ishlarini yanada jadallashtirishga qaratilgan mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta to'ldirish dasturi doirasida quyidagilarni ta'minlash:<br><br>Bukantov, Tomditov, Chotqol-Qurama, Hisor, Kuljuktov, Sultanuvays kabi jami **20 tadan** ortiq obyektda tadqiqotlar o'tkazish hisobiga **oltin** zaxirasini **136 tonnaga**, **kumush** zaxirasini **175 tonnag**a yetkazish;<br><br>**mis** zaxirasini **255 ming tonnaga,** qo'rg'oshin zaxirasini **42 ming tonnaga**, rux zaxirasini **48 ming** tonnaga, **volfram** zaxirasini **8 ming tonnaga** ko'paytirish;<br><br>uran zaxirasini **5,5 ming tonnaga** ko'paytirish, uglevodorodlar resurslarini 58 mln tonna shartli yoqilg'iga o'stirish;<br><br>yer osti suvlarining **143,7 ming m3/sut** zaxirasini aniqlash va natijasida **600 mingdan ortiq aholini** ichimlik suvi, **40 ming gektar** yerlarni sug'orish uchun suv resurslarini ko'paytirish. | Ilmiy-texnik kengash va doimiy faoliyatdagi zaxiralar komissiyasi bayoni | 2023-yil dekabr | Yillik dasturda ajratilgan limitlar doirasida<br><br>(Davlat budjeti mablag'lari) | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br><br>**Sh. Vafayev** | Tog'-kon sanoa vazi<br><br>**B. Isla**<br><br>Investitsiyala savdo v<br><br>**L. Kud**<br><br>"Navoyu<br><br>Energetik<br><br>**J. Mirzama**<br><br>Iqtisodiyot va r<br><br>**Sh. Kud** |
| **24-maqsad: Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol jo iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 10 foizga qisqartirish** | | | | | | | |
| 62. | Iqtisodiyot korxonalarida **737,01 mln kVt soat** elektr energiyasi, **813,26 mln kub metr** tabiiy gaz va **5,4 ming tonna** neft mahsulotlarining tejalishiga erishish. | Yirik sanoat korxonalarida energiya resurslarini tejash bo'yicha tashkiliy-texnikaviy chora-tadbirlarni amalga oshirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Korxona va tashkilotlarining o'z mablag'lari,<br><br>O'zenergoinspeksiya, O'zneftgaz-inspeksiya mablag'lari | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**R. Gulyamov** | Energetik<br><br>**J. Mirzama**<br><br>Investitsiyala savdo v<br><br>**L. Kud**<br><br>O'zenergoi |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 63. | Energetika tekshiruvlarini **(energetika auditi)** amalga oshirish, energiya menejment tizimini joriy etish. | Yillik hajmi **ikki ming tonnadan ortiq** shartli yoqilgʻi yoki bir ming tonnadan ortiq motor yoqilgʻisiga teng energiya resurslarini sarflaydigan **74 ta** korxona, muassasa va tashkilotlarni **majburiy energetika tekshiruvlaridan (audit) oʻtkazilishini** muvofiqlashtiri�. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Korxona va tashkilotlar mablagʻlari | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br>**Sh. Vafayev** | Energetik<br>**J. Mirzama**<br>Oʻzenergoi |
| 64. | 2026-yilga kelib elektr energiyasi **ishlab chiqarish koʻrsatkichini** qoʻshimcha **30 mlrd kVt soat**ga oshirib, jami **104 mlrd kVt soat**ga yetkazish. | **1.** Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarida umumiy quvvati **650 MVt** boʻlgan quyosh elektr stansiyalarini qurish loyihalari boʻyicha bitimlarni imzolash.<br>**2.** Qoraqalpogʻiston Respublikasida quvvati **200 MVt** boʻlgan **shamol elektr stansiyasini** qurish loyihasi doirasida tenderni yakunlab, bitim imzolash. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Xalqaro moliya institutlari va ijrochilar mablagʻlari,<br>xorijiy investitsiyalar | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br>**Sh. Vafayev** | Energetik<br>**J. Mirzama**<br>Investitsiyala savdo v<br>**L. Kud**<br>Iqtisodiyot va r<br>**Sh. Kuc**<br>Qoraqalp Respublika Kengashi, Buxo va Xorazm hokim |
| 65. | Respublikada oʻsib borayotgan **elektr energiyasiga boʻlgan talabni qondirish** maqsadida yangi generatsiya quvva�larini yaratish. | **1.** Sirdaryo viloyatida "ACWA Power" (Saudiya Arabistoni) kompaniyasi bilan hamkorlikda quvvati 1 500 MVtga teng zamonaviy issiqlik elektr stansiyasini yagona energetika tizimiga sinov tariqasida ulash.<br>**2.** Surxondaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarida **"Masdar"** (BAA) kompaniyasi bilan hamkorlikda umumiy quvvati 670 MVtga teng ikkita quyosh fotoelektr stansiyalarini yagona energetika tizimiga ulash. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil dekabr | Xorijiy investitsiyalar | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br>**Sh. Vafayev** | Energetik<br>**J. Mirzama**<br>Investitsiyala savdo v<br>**L. Kud** |
| 66. | **4,5 ming MVt** quvvatga ega **11 ta** yirik loyihani yakuniga yetkazish. Jumladan, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Fargʻona va Toshkent viloyatlarida barpo etiladigan quyosh va shamol elektr stansiyalari hisobidan qoʻshimcha **14 mlrd kVt** elektr ishlab chiqarish orqali xonadonlarga beriladigan elektr energiyasini **50 foizga** koʻpaytirish. | **1. 4,5 ming MVt quvvatga ega 11 ta yirik loyihani** samarali va oʻz vaqtida yakuniga yetkazish (tenderlarni yakunlash, bitimlarni imzolash, moliyalashtirish manbalarini aniqlash ishlari) boʻyicha tarmoq jadvallarini tasdiqlash.<br>**2.** Tasdiqlangan tarmoq jadvallari ijrosini taʼminlash. | Amaliy chora-tadbirlar rejasi | 2023-yil 15-mart<br>tarmoq jadvaliga asosan | Xorijiy investitsiyalar | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br>**Sh. Vafayev** | Energetik<br>**J. Mirzama**<br>Investitsiyala savdo v<br>**L. Kud** |
| 67. | **Energiya samaradorligini oshirish Milliy dasturini** ishlab chiqish. | Iqtisodiyot **energiya isteʼmolini kamaytirish** va **energiya resurslaridan samarali foydalanish**ni taʼminlash boʻyicha milliy dasturini ishlab chiqish va kiritish. | Vazirlar Mahkamasi qarori | 2023-yil iyul | Hisob-kitoblarga koʻra | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br>**Sh. Vafayev** | Energetik<br>**J. Mirzama**<br>Investitsiyala savdo v<br>**L. Kud** |

[2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida]

[ILOVA 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI]

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 145. | Xalqaro tajriba asosida **mehnat bozoridagi kasb** va **lavozimlar hamda ularning malaka darajalarining muvofiqligini** qayta koʻrib chiqish. | Kasb va lavozimlarning malaka darajalarini **Milliy malaka tizimi** asosida takomillashtirish. Bunda:<br><br>tarmoq malaka kengashlari, xalqaro ekspertlar bilan tegishli **kasb va lavozimlarning malaka darajalarini qayta koʻrib chiqish**;<br><br>kasbiy standartlar maketini takomillashtirish va ish joylarning funksional tahlili asosida qayta koʻrib chiqish;<br><br>mashgʻulotlarning xalqaro standart klassifikatsiyasi asosida **Milliy klassifikatsiya**ni ishlab chiqish;<br><br>malaka darajalariga muvofiq kasb va lavozimlarni kodlashtirishni ta'minlash va klassifikatorni takomillashtirish. | Normativ-huquqiy hujjat | 2023-yil dekabr | - | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Qoʻchqorov** | Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br><br>**B. Musayev**,<br><br>Savdo-sanoat palatasi<br><br>**D. Vaxobov,**<br><br>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov,**<br><br>Tarmoq malaka kengashlari |
| 146. | Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarning **160 ming** nafarini talabgor kasblarga oʻqitish hamda ulardan kamida **5 ming** nafarining kasbiy malaka darajasi tasdiqlash va ularga malaka pasportlarini taqdim etish. | Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) granti asosida Milliy texnik malakani baholash va oʻqituvchilar malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etishni nazarda tutuvchi:<br><br>**"Ishga marhamat" monomarkazlari** va kasb-hunarga oʻqitish markazlari oʻqituvchilari va muhandis ustalarini maqomi boʻyicha professional ta'lim va umumiy oʻrta ta'lim muassasalari pedagoglariga tenglashtirish hamda ularga ushbu xodimlar uchun qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va ijtimoiy himoya kafolatlarini tatbiq etish;<br><br>"Ishga marhamat" monomarkazlari huzuridagi **Oʻquv-maslahat ofislari** faoliyatini transformatsiya qilish;<br><br>insonni hayoti, sogʻligi va xavfsizligi bilan bogʻliq kasblarni **majburiy sertifikatsiyalash tizimini** tajriba-sinov tariqasida bosqichma-bosqich joriy etish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil may | Hisob-kitoblarga koʻra<br><br>Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi mablagʻlari | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Qoʻchqorov** | Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br><br>**B. Musayev**,<br><br>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov** |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 147. | YUNESKO tavsiyalari asosida **Professional ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini** ishlab chiqish. | Professional ta'lim tizimini **2030-yilgacha bo'lgan davrda** har tomonlama rivojlantirish bo'yicha strategiya loyihasini ishlab chiqish.<br><br>Bunda:<br><br>professional ta'lim muassasalarining yangi qiyofasini yaratish;<br><br>xalqaro tajribalar asosida kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga olib chiqish;<br><br>moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;<br><br>iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlantirish yo'nalishlaridan kelib chiqib maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash;<br><br>ta'lim sifatini yaxshilash;<br><br>dual ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini xorijiy ekspertlar bilan ishlab chiqish nazarda tutiladi. | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi | 2023-yil oktyabr | Hisob-kitoblarga ko'ra smetaga muvofiq | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Qo'chqorov** | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev**,<br><br>Savdo-sanoat palatasi<br><br>**D. Vaxobov,**<br><br>manfaatdor vazirlik va idoralar |
| 148. | **Yoshlarni professional ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish** ko'lamini kengaytirish va ta'lim jozibadorligini oshirish. | Professional ta'lim muassasalariga o'quvchilarni qabul qilish tizimini takomillashtirish.<br><br>Bunda:<br><br>kollej va texnikumlarga o'quvchilarni qabul qilishni bir yilda ikki marta tashkil etish;<br><br>texnikumlarda mutaxassislik yo'nalishidan kelib chiqib davlat granti ajratishni joriy etish orqali umumiy davlat granti ulushini **50 foizga** yetkazish;<br><br>xususiy sektorning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlashni tizimli yo'lga qo'yish. | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi | 2023-yil avgust | Hisob-kitoblarga ko'ra | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev**,<br><br>Savdo-sanoat palatasi<br><br>**D. Vaxobov,**<br><br>manfaatdor vazirlik va idoralar |

2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 149. | **Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan 75 ming nafar ishsiz xotin-qizlarni** davlat hisobidan mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan **kasb-hunarlarga o‘qitish**. | **1.** Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan **75 ming nafar** ishsiz xotin-qizlarning manzilli ro‘yxatlarini shakllantirish.<br><br>**2.** Har bir hududning o‘ziga xos drayveridan hamda xotin-qizlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, ularni ichki **mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarlarga o‘qitish**.<br><br>**3.** Kasb-hunarga o‘qitish markazlarida o‘qitilgan, malakaga ega bo‘lgan **xotin-qizlarning bandligini ta’minlash**, tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilishi uchun ular faoliyatiga subsidiya va imtiyozli kreditlarni jalb etish.<br><br>**4.** Olis va chekka hududlarda istiqomat qilayotgan og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan, ishsiz xotin-qizlarning bandligini ta’minlaydigan tadbirkorlik subyektlari uchun **50,0 mln. so‘m miqdorida grant** loyihalarini e’lon qilish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil mart<br><br>2023-yil davomida<br><br>2023-yil oktyabr | Hisob-kitoblarga ko‘ra | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**Z. Maxkamova** | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br><br>**B. Musayev** |
| 150. | **Yevropa kasbiy ta’lim va kasbga o‘qitish sifatini** ta’minlash (EQAVET) tizimi talablariga to‘liq javob beradigan namunaviy professional ta’lim muassasalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish. | **2023-yil 1-sentabrga qadar** Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida malakali xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda **Yevropa kasbiy ta’lim va kasbga o‘qitish sifatini ta’minlash (EQAVET) tizimi** talablariga to‘liq javob beradigan **1 tadan namunaviy professional ta’lim muassasalari** faoliyatini yo‘lga qo‘yish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil may | Hisob-kitoblarga ko‘ra | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev**,<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari |
| 151. | **Nodavlat ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish**, sohada litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish. | **1.** Nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilishda ularning **elektron kutubxonasi, axborot-resurs markazlari**, o‘qituvchilarning toifalari, bitta sinfda ta’lim **oluvchilarning maksimal soniga qo‘yilgan talablar**ni yengillashtirish.<br><br>**2.** Nodavlat ta’lim tashkilotlariga **sport zal va talabalar dam olish joylarini ularga ijara va bepul foydalanish huquqi** asosida tegishli bo‘lgan binolarda ham tashkil etishga ruxsat etish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil noyabr | - | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br><br>**X. Umarova,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev** |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **38-maqsad: Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish.** | | | | | | | |
| 152. | **6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni** ta'minlash bo'yicha **maqsadli ko'rs�tkichlarga** erishish ishlarini davom ettirish. | Bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish orqali qamrov darajasini oshirish.<br>Bunda:<br>**269 ta** qisqa muddatli tayyorlov guruhlari;<br>**94 ta** to'liq kunlik tayyorlov guruhlari;<br>**1 384 ta** majburiy bepul tayyorlov guruhlari;<br>maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini joriy etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil yakuniga qadar | **60 mlrd so'm**<br>Respublika budjeti mablag'lari | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**O. Abduraxmonov** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br>**X. Umarova,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**Sh. Kudbiyev** |
| 153. | Davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta'lim **tashkilotlarini tashkil etish orqali nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish**. | **1.** Yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni **ko'p kvartirali uylarning noturar qavatlarida** yoki **yakka tartibda qurilgan uy-joylarni sotib olish** va keyinchalik ularni **rekonstruksiya** qilish, ta'mirlash hamda jihozlash orqali amalga oshirishga ruxsat etish.<br>**2.** Davlat-xususiy sheriklik loyihasi doirasida ijaraga berilgan yer uchastkasida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini qurgan xususiy sherik tomonidan ushbu binoning **bank kreditlari bo'yicha garovga qo'yilishiga oid cheklovlarni bekor qilish.** | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil aprel | - | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**O. Abduraxmonov** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br>**X. Umarova,**<br>Adliya vazirligi<br>**A. Tashkulov,**<br>manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | **3. 1 600 ta** oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish hisobiga **40 mingdan ortiq** bolalar o'rnini tashkil etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil yakuniga qadar | **185 mlrd so'm**<br>Respublika budjeti mablag'lari | - | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br>**X. Umarova,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**Sh. Kudbiyev** |
| **39-maqsad: Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish.** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 154. | Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda o'quv dasturlarini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlari samaradorligini oshirish. | **1.** Xalqaro loyihalar doirasida xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining **14 ming**dan ziyod xodimlarini (40 soatga mo'ljallangan) qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida o'qitish.<br><br>**2.** Takomillashtirilgan **"Ilk qadam"** davlat o'quv dasturini amaliyotga keng joriy etish.<br><br>**3.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini **25 nomdagi** o'quv-metodik va didaktik materiallar bilan ta'minlash.<br><br>**4.** Ota-onalar uchun bolalar tarbiyasi va ta'limiga oid Internet resurslarini yaratish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil noyabr | **800 ming doll**<br><br>Jahon banki mablag'lari,<br><br>budjet mablag'lari parametrlarida ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>**X. Umarova,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev,**<br><br>Raqamli texnologiyalar vazirligi<br><br>**Sh. Shermatov** |
| 155. | Erta yoshdagi bolalar ta'limi sifati va natijalarini baholash bo'yicha xalqaro MELQO (measuring early learning quality outcomes) baholash tizimi asosida **"Bolalarning erta yoshdan rivojlanishi va maktabgacha ta'lim sifatini baholashning milliy tizimi"**ni joriy etish. | **1.** Xalqaro **MELQO** ta'lim sifatini baholash vositalarini milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda adaptatsiya qilish.<br><br>**2.** MELQO standartlariga muvofiq maktabgacha ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini ishlab chiqish.<br><br>**3. Milliy baholash tizimi**ni tajriba-sinovdan o'tkazish.<br><br>**4.** Tajriba-sinov natijalari asosida milliy baholash tizimini keng qamrovda joriy etish choralarini ko'rish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil noyabr | Jahon bankining "Erta bolalikdagi rivojlanishni qo'llab-quvvatlash" loyihasi doirasida<br><br>**250 ming doll**. | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>**X. Umarova** |
| **40-maqsad: Maktabgacha ta'lim tizimida budjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash.** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 156. | **Maktabgacha ta'lim tizimi**da noqonuniy moliyaviy xatti-harakatlar, **korrupsiya holatlari va budjet mablag'larining maqsadsiz sarflanishi**ni oldini olish. | **1. 6 412 ta** davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida avtomatlashtirilgan tizimni ishga tushirish uchun texnik vositalarni xarid qilish.<br>**2. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi**ni ishga tushirish.<br>**3.** Xodimlar va tarbiyalanuvchilarning davomati hamda bolalarni ovqatlantirish bilan bog'liq xarajatlarni elektron hisoblanishini yo'lga qo'yish.<br>**4. "Yagona mavsumiy taomnoma"**ni joriy etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil sentyabr | Respublika budjetidan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**O. Abduraxmonov** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br>**A. Shin,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**Sh. Kudbiyev,**<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi<br>**A. Burxanov** |
| **41-maqsad: Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish** | | | | | | | |
| 157. | Yangi maktablarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish hamda ularda zarur shart-sharoitlarni yaratish. | **1. "Namunaviy maktab"** loyihalari asosida **237 ta** maktabni rekonstruksiya qilish va yangidan barpo etish orqali **76 ming** o'quvchi o'rnini yaratish.<br>**2.** Maktablarni to'liq **zamonaviy mebel, uskunalar** bilan jihozlash. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Davlat budjeti mablag'lari<br>(**1,7 trln so'm**),<br>mahalliy budjet mablag'lari,<br>homiylar mablag'lari,<br>tadbirkorlar mablag'lari,<br>xorijiy bank kreditlari | O'�bekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**O. Abduraxmonov** | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari,<br>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi,<br>**B. Zakirov,**<br>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br>**X. Umarova** |
| | | **3.** Umumta'lim maktablaridagi **1200 ta** ma'nan eskirgan kompyuter sinflarini yangilash. | Amaliy chora-tadbir | 2023-yil yakuniga qadar | Respublika budjeti<br>**100 mlrd so'm,**<br>mahalliy budjet<br>**100 mlrd so'm** | | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari,<br>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br>**X. Umarova,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**Sh. Kudbiyev** |
| | | **4.** Respublikadagi **4860 ta** *(shundan 2509 ta o'g'ilbolalar va 2351 tasi qiz bolalar xonasi)* maktabdagi texnologiya xonalarini jihozlash. | Amaliy chora-tadbir | 2023-yil yakuniga qadar | Mahalliy budjet mablag'lari | | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari,<br>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br>**X. Umarova** |
| | | **5.** Nodavlat ta'lim tashkilotlari sonini **400 taga** yetkazish. | Amaliy chora-tadbir | 2023-yil yakuniga qadar | Tadbirkorlar mablag'lari,<br>xorijiy bank kreditlari | | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br>**X. Umarova** |
| **42-maqsad: 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 158. | Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini amaliyotga kiritish. | **1.** Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1 — 4-sinflarida o'quvchilarni ilg'or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo'yicha o'qitish.<br><br>**2.** 5 — 9-sinflarda o'quvchilarga umumta'lim fanlaridan tayanch bilimlar berish.<br><br>**3.** 10-11-sinf o'quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo'lgan ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil sentyabrdan boshlab bosqichma-bosqich | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lari hisobidan | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>**X. Umarova,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev** |
| | | **4.** Umumta'lim maktablarida darsliklar va o'quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o'tkazish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil sentyabr | Xalqaro moliya tashkilotlari mablag'lari | | |
| | | **5.** Fransiyaning **"Didyer" nashriyoti**ning fransuz tili fani darsligini xarid qilish.<br><br>Kembridj nashriyotining Informatika darsligini barcha ta'lim tillari uchun litsenzion huquqini xarid qilish, tarjima qilish va chop etish. | | 2023-yil yakuniga qadar | | | |
| **43-maqsad: Malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish.** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 159. | Professional ta’lim **xodimlari mehnatiga haq toʻlashning yangi tizimini** joriy etish. | Quyidagilar:<br><br>**1.** professional ta’lim muassasasi pedagoglarining bazaviy tarif stavkalarini mos ravishda umumiy oʻrta ta’lim muassasalari pedagoglarining bazaviy tarif stavkalariga;<br><br>professional ta’lim muassasasi birinchi va ikkinchi malaka toifasiga ega boʻlgan, malaka toifasiga ega boʻlmagan oliy ma’lumotli hamda oliy ma’lumotga ega boʻlmagan ishlab chiqarish ta’limi ustalarining bazaviy tarif stavkalari tegishincha umumiy oʻrta ta’lim muassasalari birinchi va ikkinchi malaka toifali oʻqituvchisi, oliy ma’lumotli oʻqituvchisi hamda oʻrta maxsus ma’lumotli oʻqituvchisining bazaviy tarif stavkalariga tenglashtirish.<br><br>**2.** Professional ta’lim muassasasining yuqori natijalarga erishgan pedagog va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining bazaviy tarif stavkalariga direktor jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan har oylik **50 foizgacha** ustama toʻlash amaliyotini joriy etish.<br><br>**3.** Professional ta’lim tizimi xodimlari mehnatiga haq toʻlash va professional ta’lim muassasalarini saqlash xarajatlarini moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish nazarda tutiladi. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil mart | Davlat budjeti mablagʻlari | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov**,<br><br>Iqtisod va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev** |
| **44-maqsad: Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish.** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 160. | **Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar** uchun qulay sharoitlar yaratish. | **1.** Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun **inklyuziv ta'lim** tizimini bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy qilish.<br><br>Bunda, ommaviy axborot vositalari orqali inklyuziv ta'lim tizimining ijobiy tomonlarini ota-onalarga keng targ'ib qilish.<br><br>**2.** Har bir tuman (shahar)da kamida bittadan inklyuziv maktablar tashkil etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil sentyabr | Ijrochilar mablag'lari | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>**X. Umarova** |
| | | **3.** Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan (eshitishda nuqsoni bo'lgan) **1-sinf o'quvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish** va ularga eshitish moslamalarini taqdim etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil noyabr | - | | Sog'liqni saqlash vazirligi<br><br>**A. Inoyatov,**<br><br>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>**X. Umarova** |
| 161. | Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ta'lim muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida ularning kasb nufuzini oshirish hamda maqomini yuksaltirish. | **1.** Buyuk Britaniyaning **Cambridge tashkiloti** bilan hamkorlikda **"PDQ" dasturi**ni Agentlik tizimidagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazida joriy etish.<br><br>**2.** Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalarining **"PDQ" dasturi** asosida kasbiy malakasini oshirgan rahbar va pedagog xodimlarining **"Ilg'or o'qituvchi"**, **"Ustoz o'qituvchi"** va **"Professional o'qituvchi"** darajalarini berish orqali rag'batlantirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil noyabr | Prezident ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>**X. Umarova** |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 162. | **"Pedagog xodimning maqomi to'g'risida"gi** qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish. | Qonun loyihasida shu jumladan quyidagilar nazarda tutiladi:<br><br>pedagoglarni o'z kasbiy faoliyatiga kirmaydigan ishlarga jalb qilishni taqiqlash hamda **ularning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish** kafolatlarini mustahkamlash;<br><br>pedagog xodim faoliyatining kafolatlari va ularni ijtimoiy himoya qilish choralarini mustahkamlash, shu jumladan ularni **yuqumli kasalliklarga qarshi bepul profilaktik emlash** va **tibbiy ko'rikdan o'tkazish**, o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlash;<br><br>pedagoglardan hisobotlar va boshqa ma'lumotlarni talab qilish, ularning **faoliyatini asossiz ravishda tekshirish**, turli tadbirlarda qatnashishga majburlashga yo'l qo'ymaslik. | Qonun loyihasi | 2023-yil aprel | - | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Qo'chqorov** |
| 163. | Fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish va o'quv yuklamasini maqbullashtirish. | Quyid?gi masalalar bo'yicha takliflarni ishlab chiqish:<br><br>**boshlang'ich sinf o'qituvchilarining** pedagog stavkasini **16 soat etib belgilash**;<br><br>yuqori sinf o'quvchilarining fanlarga ixtisoslashuvini kengaytirish;<br><br>umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbar xodimlari mehnatiga **haq to'lash sharoitlarini** yaxshilash. | Axborot xati | 2023-yil may | - | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>**X. Umarova**,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev** |
| **45-maqsad: Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta'minlash.** | | | | | | | |
| 164. | Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatlarida umumta'lim maktablarida sog'lom ovqatlanish tizimini amalga oshirish. | **1.** Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining har bir shahar, tumanlardagi umumta'lim maktablari **1 — 4 sinf o'quvchilariga oziq-ovqat yetkazib berilishi**, sifati va ta'minlanishi yuzasidan doimiy nazorat o'rnatish.<br><br>**2.** Monitoring natijalari asosida **muammolarni hal etish** tizimini yaratish. | Amaliy chora-tadbir | 2023-yil davomida | - | O'zbekiston Respublikasi Prezide�ti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>**X. Umarova**,<br><br>Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 165. | Respublikaning **barcha umumta'lim maktablarida sogʻlom ovqatlanish tizimini** amalga oshirish. | **1. Respublikaning barcha maktablarida 2023/2024 oʻquv yilidan boshlab** birinchi-toʻrtinchi sinf oʻquvchilarini **bepul ovqat bilan ta'minlashni tashkil etish.**<br><br>Bunda, ovqat turlari oʻquvchilarning yoshi va sogʻligʻi holatiga koʻra me'yorlangan holda yetkazib berilishi hamda sanitariya talablariga javob berishini ta'minlash.<br><br>**2.** Monitoring natijalari asosida **muammolarni hal etish** tizimini yaratish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil may | Davlat budjeti mablagʻlari | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>**X. Umarova,**<br><br>Iqtisod va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev,**<br><br>viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **46-maqsad: Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish** | | | | | | | |
| 166. | Oliy ta'lim muassasalarining **ta'lim dasturlarini xalqaro ta'lim talablariga** moslashtirish. | **1.** Xorijiy ekspertlar ishtirokida ichki va tashqi sifatni ta'minlash amaliyotini dastlab **6 ta oliy ta'lim muassasasida** joriy etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil mart-n�yabr | Oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablagʻlari, xorijiy grantlar | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**A. Toshqulov** | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov,**<br><br>tizimida oliy ta'lim muassasalari boʻlgan vazirlik va idoralar, |
| | | **2.** Mazkur oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlarini xalqaro tashkilotlar tomonidan akkreditatsiyadan oʻtkazish. | | 2023-yil noyabr | | | |
| 167. | Oliy ta'lim muassasalarida **ilgʻor xorijiy tajribalardan foydalanish samaradorligini** oshirish. | Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida:<br><br>**1.** Professor-oʻqituvchilarni **xorijiy davlatlarda malaka oshirish** va stajirovka oʻtash uchun yuborish.<br><br>**2.** Respublika oliy ta'lim muassasalarida oʻquv mashgʻulotlarini olib borish uchun xorijdan professor-oʻqituvchilarni jalb qilish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil dekabr | Oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablagʻlari | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**A. Toshqulov** | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov,**<br><br>Tashqi ishlar vazirligi<br><br>**B. Saidov,**<br><br>"El-yurt umidi" jamgʻarmasi<br><br>**A. Bekmuradov** |
| **47-maqsad: 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash.** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 168. | Respublika oliy ta'lim muassasalarini **QS, TNE xalqaro reyting agentliklarining nufuzli oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga** kiritish choralarini ko'rish. | **1.** Tanlab olingan **10 ta** oliy ta'lim muassasalari ilmiy-pedagogik faoliyatining **QS**, **TNE xalqaro reyting agentliklari** ro'yxatiga kiritish talablariga muvofiqligini tahlil qilish.<br><br>**2.** Tanlab olingan **10 ta** oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining **"Scopus"**, **"Web of Science"**, **"Science Direct"** va boshqa nufuzli xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasida indekslanuvchi ilmiy jurnallarida nashr etilgan maqolalari sonini **1 600** taga yetkazish.<br><br>**3.** Tanlab olingan **10 ta** oliy ta'lim muassasalarida "Xirsh" indeksi **5 va undan yuqori** bo'lgan professor-o'qituvchilar sonini **300** taga yetkazish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil oktyabr | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**A. Toshqulov** | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov**,<br><br>manfaatdor vazirlik va idoralar |
| **48-maqsad: Qariyb 100 ming o'rinli talabalar turar joylarini barpo etish.** | | | | | | | |
| 169. | **Talabalarni turar joy bilan ta'minlanish** darajasini oshirish. | **1.** Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan talabalar turar joylarini qurish uchun yer maydonlarini belgilangan tartibda ajratish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil mart-sentyabr | - | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**A. Toshqulov** | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| | | **2.** Davlat-xususiy sheriklik loyihalari, oliygoh va budjet mablag'lari hamda investitsiya dasturi doirasida **talabalar turar joylarini qurish** bo'yicha loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish. | | | Tadbirkorlik subyektlari mablag'lari,<br><br>Davlat budjetida mazkur maqsadlarga ajratilgan mablag'lar,<br><br>Oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari | | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov**,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev**,<br><br>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| | | **3.** 2023-yil yakuniga qadar oliy ta'lim muassasalarida **18 ming** o'rinli talabalar turar joylarini qurish, ushbu loyihalar doirasida qurilayotgan talabalar turar joylarini foydalanishga topshirish. | | 2023-yil dekabr | | | |
| **49-maqsad: 2026-yilgacha nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish.** | | | | | | | |

[2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida]

[ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI]

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 170. | Oliy ta’lim tashkilotlarida **kadrlar tayyorlashda raqobatbardoshlikni oshirish** va ta’lim sifatini yaxshilash. | Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.<br><br>Bunda:<br><br>nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarini litsenziyalash talablarini takomillashtirish;<br><br>oliy ta’lim tashkilotlari milliy reytingida nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari ishtiroki uchun imkoniyat yaratish;<br><br>nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari rahbar kadrlariga qoʻyiladigan malaka talablarini kuchaytirish nazarda tutiladi. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil sentyabr | Hisob-kitoblarga koʻra | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**A. Toshqulov** | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov,**<br><br>Adliya vazirligi<br><br>**A. Tashkulov,**<br><br>Biznes-ombudsman<br><br>**D. Kasimov** |
| **50-maqsad: “El-yurt umidi” jamgʻarmasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga oʻqishga yuborish koʻlamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga yoʻnaltirish.** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 171. | **"El-yurt umidi" jamg'armasi ta'lim dasturlari** asosida iqtidorli yoshlarning xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida ta'lim olishi uchun ochiq stipendiya tanlovlarini o'tkazish. | **1.** Xorijiy oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlarida qatnashish maqsadida Jamg'arma tomonidan **ochiq stipendiya** tanlovlarini e'lon �ilish va o'tkazish.<br><br>**2.** "El-yurt umidi" jamg'armasining ochiq stipendiya tanlovlari tartibi bilan bog'liq yangiliklarni vazirlik, idora va tashkilotlar, shuningdek, hududlardagi yoshlar orasida keng targ'ib etishga qaratilgan hududiy amaliy-uslubiy seminarlar tashkil etish.<br><br>**3.** Stipendiya tanlovi g'oliblarini aniqlash va ularga Jamg'arma stipendiati sertifikatini tantanali topshirish hamda xorijiy davlatlarga ta'lim olishga yuborishni tashkil etish.<br><br>**4.** Stipendiatlarning xorijda ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida xorijiy nufuzli universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik memorandumlari tuzishni yanada kengaytirish. | Jamg'arma Vasiylik kengashi qarori | 2023-yil may va noyabr oylarida | Jamg'armaga ajratilgan mablag'lar doirasida | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**K. Kuranbayev** | "El-yurt umidi" jamg'armasi<br><br>**A. Bekmurodov**,<br><br>Yoshlar ishlari agentligi<br><br>**A. Sadullayev**,<br><br>Tashqi ishlar vazirligi<br><br>**B. Saidov**,<br><br>Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi<br><br>**O. Xasanov**,<br><br>MTRK<br><br>**A. Xadjayev**,<br><br>manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | **5.** "El-yurt umidi" jamg'armasining ta'lim dasturlari tarkibini, stipendiatlar mehnat faoliyati monitoringini yuritish mexanizmini, shuningdek, Jamg'arma faoliyatini yanada takomillashtirish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil aprel | Hisob-kitoblarga ko'ra | | "El-yurt umidi" jamg'armasi<br><br>**A. Bekmurodov**,<br><br>Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi<br><br>**O. Xasanov,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev** |

2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 172. | “**El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiatlari** va xorijda istiqomat qilayotgan qimmatli **ilmiy-amaliy tajribaga ega bo‘lgan vatandoshlar o‘rtasida muntazam muloqot va hamkorlikni** o‘rnatish. | “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiatlari va vatandoshlar o‘rtasida muloqot maydonini yaratadigan an’anaviy **III Xalqaro Forum**ni tashkil etish. | Jamg‘arma Vasiylik kengashi qarori | 2023-yil avgust | Jamg‘armaga ajratilgan mablag‘lar doirasida va homiy tashkilotlar mablag‘lari | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**K. Kuranbayev** | “El-yurt umidi” jamg‘armasi<br>**A. Bekmurodov,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**Sh. Kudbiyev,**<br>Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi<br>**M. Xojimatov,**<br>Tashqi ishlar vazirligi<br>**B. Saidov,**<br>Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi<br>**O. Xasanov,**<br>Yoshlar ishlari agentligi<br>**A. Sa’dullayev,**<br>O‘zbekiston MTRK<br>**A. Xadjayev**,<br>Madaniyat va turizm vazirligi<br>**O. Nazarbekov**<br>“Vatandoshlar” jamoat fondi<br>**O. Sattarov** |
| **51-maqsad: Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish.** | | | | | | | |
| 173. | O‘zbekiston Respublikasi **Fanlar akademiyasi tashkil topganligining 80 yilligini** keng nishonlash. | O‘zbekiston akademik fanining yutuqlarini keng xalqaro jamoatchilikka yetkazishga bag‘ishlangan **xalqaro ilmiy-amaliy anjuman va ilmiy ishlanmalar ko‘rgazmasi**ni o‘tkazish. Bunda:<br>anjumanga xorijiy davlatlar vakillarini taklif etish;<br>anjumanga jahonning nufuzli ilmiy markazlaridan kamida **200 ta** yetakchi olimlarni jalb qilish;<br>anjumanda **Nobel mukofoti** laureati ishtirokini ta’minlash;<br>anjuman doirasida ilmiy ishlanma va mahsulotlar ko‘rgazmasini tashkil etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil noyabr | Hisob-kitoblarga ko‘ra | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**O. Abduraxmonov** | Fanlar akademiyasi<br>**B. Yuldashev,**<br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>**I. Abduraxmonov,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**Sh. Kudbiyev** |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 174. | **Oʻzbekiston tarixi, madaniyati va buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma’rifiy merosini saqlash**, ilmiy muomalaga kiritish, respublika va xalqaro miqyosda **yanada ommalashtirish**. | **1.** Oʻzbekiston tarixi, madaniyati va ilmiy-ma’rifiy merosiga oid noyob qoʻlyozma asarlarni tadqiq etish, ilmiy muomalaga kiritish va ommalashtirish boʻyicha **2023 — 2026-yillarga moʻljallangan dastur** loyihasini ishlab chiqish.<br><br>Bunda:<br><br>sohada har yili **10 nafar** malakali manbashunos mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirish va xorijiy mamlakatlarga stajirovkaga yuborish;<br><br>taniqli olimlarning noyob qoʻlyozma asarlarini oʻrganish boʻyicha ilmiy-tadqiqot va tarjimonlik maktablarini yaratish;<br><br>sohada **“ustoz-shogird” an’analari**ni joriy qilish;<br><br>noyob qoʻlyozma asarlarini saqlash, ta’mirlash, tadqiq etish, nashrdan chiqarish va ommalashtirish ishlarini moddiy qoʻllab-quvvatlash tizimini joriy etish;<br><br>xorijiy mamlakatlarda chop etilgan yurtimiz tarixi va ajdodlarimiz ilmiy-ma’rifiy merosiga oid muhim tadqiqotlarni oʻzbek tiliga tarjima qilish va nashr etishni yoʻlga qoʻyish nazarda tutiladi. | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi | 2023-yil noyabr | Hisob-kitoblarga koʻra<br><br>Davlat budjeti mablagʻlari | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Fanlar akademiyasi<br><br>**B. Yuldashev,**<br><br>Madaniyat va turizm vazirligi<br><br>**O. Nazarbekov,**<br><br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov,**<br><br>Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti<br><br>**G. Rixsiyeva,**<br><br>Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi<br><br>**M. Komilov,**<br><br>Islom sivilizatsiyasi markazi<br><br>**Sh. Minovarov,**<br><br>Imom Buxoriy xalqaro markazi<br><br>**Sh. Ziyodov,**<br><br>manfaatdor vazirlik va idoralar |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **2.** Oʻzbekiston tarixi, arxeologiyasi va ajdodlar merosiga oid noyob yodgorliklarni muhofaza qilish, ta'mirlash, ilmiy muomalaga kiritish va ommalashtirish ishlari samaradorligini oshirish toʻgʻrisida Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish.<br><br>Bunda:<br><br>respublikaning davlat fondlarida saqlanayotgan yozma manbalarning reyestrini tuzish;<br><br>noyob qoʻlyozmalardan **40 ming** kadr raqamlashtirish va **5 ming** varaq ta'mirlanishini ta'minlash;<br><br>oʻrta asrlar tarixi, fani, madaniyati va adabiyotiga doir **15 ta** manbani ilmiy muomalaga kiritish;<br><br>oʻrta va uzoq istiqbolda sohani rivojlantirish boʻyicha aniq reja va chora-tadbirlar dasturlarini shakllantirish nazarda tutiladi. | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi | 2023-yil noyabr | | | |
| **52-maqsad: Global innovatsion indeksda Oʻzbekiston Respublikasining oʻrnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish.** | | | | | | | |
| 175. | 2023-yilda **4- va 8-sinf oʻquvchilarining matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini** baholovchi **TIMSS 2023 xalqaro baholash dasturida** Oʻzbekiston ishtirokini ta'minlash. | **1.** Xalqaro dastur haqida targʻibot-tashviqot, seminar va treninglar tashkil etish, maktab direktorlari va oʻqituvchilarning salohiyatini rivojlantirish.<br><br>**2.** Xalqaro tadqiqotda ishtirok etish boʻyicha a'zolik badal toʻlovlarini amalga oshirish.<br><br>**3.** Xalqaro tashkilotlar tomonidan tanlab olingan **166 ta** maktabda moddiy-texnika bazani mustahkamlash, Internet tarmogʻiga ulanish sifatini oshirish hamda tadqiqotlarni tashkil etish.<br><br>**4.** 2024-yilda xalqaro darajada e'lon qilinadigan tadqiqotlar natijalari asosida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, maktab ta'limi, oʻquv dasturlari va oʻqitish metodikalarini takomillashtirish boʻyicha chora-tadbirlarni belgilash. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil noyabr | Jahon bankining "Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish" loyihasi mablagʻlari hisobidan<br><br>**169,6 ming doll** | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**A. Toshqulov** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>**X. Umarova,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev,**<br><br>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi<br><br>**L. Kudratov** |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 176. | **O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro PISA 2025** tadqiqot dasturida **O'zbekistonning ishtirokini** ta'minlash. | **1.** Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) bilan shartnomaga muvofiq a'zolik badallarini to'lash.<br><br>**2.** Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan hamkorlikda tadqiqotning 2024-yildagi tajriba-sinovi hamda 2025-yildagi asosiy sinovlarini tashkil qilish hamda tadqiqotda maktablarning muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashg� qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.<br><br>**3.** Chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil noyabr | Amaldagi qonunchilikka muvofiq ajratiladigan mablag'lar doirasida | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**A. Toshqulov** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>**X. Umarova,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev** |
| **53-maqsad: Aholi uchun kafolatlangan ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish.** | | | | | | | |
| 177. | Reabilitatsiya markazlarida nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya choralari bilan qamrab olish ko'lamini 5 baravarga oshirish. | 1. Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazlarida nogironligi bo'lgan shaxslarni ambulator sharoitda bepul tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish tartibi loyihasini ishlab chiqish.<br><br>2. Ambulator sharoitda bepul tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish tizimini 2023 — 2026-yillarda joriy etish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil may | Ajratilgan davlat budjeti mablag'lari doirasida | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Qo'chqorov** | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi<br><br>**B. Musayev,**<br><br>Sog'liqni saqlash vazirligi<br><br>**A. Inoyatov,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev** |
| **54-maqsad: Pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish.** | | | | | | | |
| 178. | Fuqarolarning pensiya miqdorlari mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlariga muvofiq izchil oshib borishini ta'minlash. | Pensionerga hisoblab chiqarib qo'yilgan, lekin uning tomonidan o'z vaqtida talab qilib olinmagan pensiyasini to'lash muddatini 12 oydan 24 oyga uzaytirish. | Qonun loyihasi | 2023-yil iyul | **15,2 mlrd so'm**<br><br>Pensiya jamg'armasi mablag'lari | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**J. Qo'chqorov** | Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev,**<br><br>Pensiya jamg'armasi<br><br>**A. Xaydarov** |
| 222. | Jamiyat ijtimoiy-ma’naviy hayoti va axloqiy tarbiya jarayonlarida **ijodiy tashkilotlar faoliyatining ta’sirchanligini oshirish** hamda ularning oʻzaro hamkorligini mustahkamlash choralarini belgilash. | **1.** Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzurida adabiyot va san’at sohalarining yetakchi ijodkorlaridan iborat **Respublika ijodiy jamoatchilik kengashi**ni tashkil etish.<br><br>**2.** Dolzarb mavzulardagi yirik ijodiy loyihalar (filmlar, adabiy-badiiy, sahna va musiqa asarlari)ni hamkorlikda yaratish amaliyotini yoʻlga qoʻyish.<br><br>**3.** Ijodiy asarlarga davlat ijtimoiy buyurtmalarini shakllantirishda Respublika ijodiy jamoatchilik kengashi takliflarini inobatga olish tizimini joriy qilish.<br><br>**4.** Turli ijodiy tashkilotlar qoshidagi badiiy kengashlarning Respublika ijodiy jamoatchilik kengashi bilan oʻzaro hamkorligini kuchaytirish. | Mas’ul ijrochilar qoʻshma qarori | 2023-yil aprel | Sohaga ajratilgan mablagʻlar doirasida | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi<br><br>**M. Hojimatov,**<br><br>Madaniyat va turizm vazirligi<br><br>**O. Nazarbekov,**<br><br>Yozuvchilar uyushmasi<br><br>**S. Saidov,**<br><br>Kinematografiya agentligi<br><br>**F. Abduxoliqov,**<br><br>Badiiy akademiya<br><br>**A. Nuriddinov,**<br><br>Teatr arboblar� uyushmasi<br><br>**Y. Ahmedov,**<br><br>Kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi<br><br>**R. Abdullayev,**<br><br>MTRK<br><br>**A. Xadjayev,**<br><br>Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi<br><br>**A. Xodjayev,**<br><br>Milliy media assotsiatsiyasi<br><br>**Sh. Qudratxoʻja** |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 223. | Mahallalarda **xotin-qizlarning ijtimoiy faolliklarini oshirishga** qaratilgan tadbirlarni tashkil etish. | **1.** Barcha mahallalarda xotin-qizlar faoli mas'ulligida "Oqila ayollar" harakati negizida otinoyilar, ko'chaboshilar, yoshlar yetakchilari, faol xotin-qizlardan iborat tarkibda mahalla targ'ibot guruhlari shakllantirish.<br><br>**2.** Targ'ibot guruhlari tomonidan:<br>ushbu yo'nalishda Toshkent shahrida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish hamda uning natijalari asosida mahallalarda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy faolliklarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;<br><br>tuman (shahar)lar va viloyatlarda targ'ibotchilar guruhlarini shakllantirish, ular uchun o'quvlarni tashkil etish;<br><br>har bir tuman (shahar)ning tadbirlarni o'tkazish grafiklari ishlab chiqishini tashkillashtirish. | Amaliy ch�ra-tadbirlar | 2023-yil mart | Hisob-kitoblarga ko'ra | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Oila va xotin-qizla qo'mitasi,<br><br>Din ishlari bo'yich qo'mita<br><br>**S. Toshboyev**,<br><br>Madaniyat va turizm vazirligi<br><br>**O. Nazarbekov**,<br><br>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov**<br><br>Yoshlar siyosati va sport vazirligi<br><br>**A. Ikramov** |
| **72-maqsad: Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda "Kitobsevar millat" umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish** | | | | | | | |
| 224. | **Hududlarda kitobxonlikni targ'ib qilishning** ta'sirchan �a samarali usullarini joriy qilish. | **Kitobxonlik tadbirlarini o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini** ishlab chiqish.<br><br>Bunda:<br><br>hududlarda ushbu yo'nalishda qulay shart-sharoitlar va infratuzilma yaratish;<br><br>kitobxonlik tadbirlarini taniqli ijodkorlar, ziyolilar ishtirokida adabiyot va kitobxonlik bayrami sifatida yuqori saviyada tashkil qilish;<br><br>**"Kitobsevar millat"** oyliklari doirasida ma'rifiy tadbirlar, kitob savdo-yarmarkalari, kitob festivallari va **"Kitob karvoni"** aksiyalarini uyushtirish. | Chora-tadbirlar rejasi | 2023-yil may | Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Axborot va ommaviy kommunikatsiyala agentligi<br><br>**A. Xodjayev,**<br><br>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>**X. Umarova,**<br><br>Yozuvchilar uyushmasi<br><br>**S. Saidov,**<br><br>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br><br>**I. Abduraxmonov**<br><br>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 225. | **Mumtoz va zamonaviy adabiyotimizni** yanada ommalashtirish. | 2023 — 2026-yillarda o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining eng yaxshi namunalari asosida **"O'zbek adabiyoti xazinasidan"** to'plamni nashrga tayyorlash va chop etish dasturini tasdiqlash, bunda:<br><br>to'plamga kiritiladigan mualliflar va ularning asarlari ro'yxatini shakllantirish;<br><br>to'plamga kiritiladigan asarlarni nashrga tayyorlash va chop etish;<br><br>loyiha doirasida nashr etilgan asarlar taqdimotlarini o'tkazish. | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi | 2023-yil iyul | Hisob-kitoblarga ko'ra | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Axborot va ommaviy kommunikatsiyala agentligi<br><br>**A. Xodjayev,**<br><br>Yozuvchilar uyushmasi<br><br>**S. Saidov,**<br><br>Fanlar akademiyas<br><br>**B. Yuldashev** |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 226. | Koʻzi ojiz va koʻrishda nuqsoni bor bolalarni **Brayl yozuvidagi badiiy adabiyotlar bilan ta’minlash** tizimini takomillashtirish. | **1.** Brayl alifbosida kitob nashr etishga ixtisoslashgan nashriyot va matbaa korxonalarining moddiy-texnika bazasi va ishlab chiqarish quvvatlari holatini oʻrganish.<br><br>**2.** Tahlil natijalari boʻyicha Brayl alifbosida kitob nashr etishga ixtisoslashgan nashriyot, matbaa korxonalarini uskuna va jihozlar bilan ta’minlash.<br><br>**3.** Koʻzi ojizlar kutubxonalarida kitobxonlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, lingafon xonalarini tashkil qilish.<br><br>**4.** Brayl alifbosidagi badiiy adabiyotlarni nashr etish, ularning audio shakllarini yaratish. | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi, amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil avgust | Hisob-kitoblarga koʻra<br><br>(ijrochilarning budjet va budjetdan tashqari mablagʻlari<br><br>**8,0 mlrd soʻm**) | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Axborot va ommaviy kommunikatsiyala agentligi<br><br>**A. Xodjayev,**<br><br>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br><br>**X. Umarova,**<br><br>Davlat aktivlarini boshqarish agentligi<br><br>**A. Ortiqov,**<br><br>Ichki ishlar vazirlig<br><br>**P. Bobojonov** |
| 227. | Mumtoz va zamonaviy adabiyotimiz atoqli namoyandalarining **tavallud sanalarini adabiyot va kitobxonlik bayrami sifatida munosib nishonlash**, ularning ijodiy merosini keng ommalashtirish. | **1.** Davlat arbobi va shoir **Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini** keng nishonlash boʻyicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023-yil mart | Ijrochilar mablagʻlari | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Bobur xalqaro jamoat fondi<br><br>**Z. Mashrabov,**<br><br>Fanlar akademiyas<br><br>**B. Yuldashev** |
| | | **2.** Oʻzbekiston xalq shoiri **Gʻafur Gʻulom tavalludining 120 yilligini** keng nishonlash boʻyicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash. | | 2023-yil mart | | | Yozuvchilar uyushmasi<br><br>**S. Saidov,**<br><br>Fanlar akademiyas<br><br>**B. Yuldashev,** |
| **73-maqsad: Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur oʻrganish va keng targʻib etish** | | | | | | | |
| 228. | Jahondagi mashhur muzeylarning eng ilgʻor tajribalari asosida mamlakatimizda **muzeylar faoliyatini rivojlantirish, zamonaviy ekspozitsiyalar**ni bosqichma-bosqich yaratish. | **1. Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyi, Oʻzbekiston davlat tabiat muzeylari** binolarini rekonstruksiya qilish, jihozlash, raqamlashtirish va zamonaviy ekspozitsiyalarini yaratish.<br><br>**2.** Badiiy galereya va **ART-rezidensiyalar**ni tashkil qilish.<br><br>**3. “Restoration Week-2023”** tadbirini Oʻzbekistonda oʻtkazish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil noyabr | Toshkent shahri mahalliy budjetining qoʻshimcha manba mablagʻlari | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Toshkent shahar hokimligi, Madani meros agentligi<br><br>**B. Abdikarimov** |
| **74-maqsad: Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bagʻrikenglik muhitini mustahkamlash** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 229. | Yurtimizda **millatlararo totuvlik, diniy bagʻrikenglik va xalqlararo doʻstlikni targʻib etuvchi** madaniy-maʼrifiy tadbirlarni oʻtkazish. | **1.** 30-iyul — Xalqlar doʻstligi kuni munosabati bilan **"Doʻstlik" festivali**ni tashkil etish va oʻtkazish. | Vazirlar Mahkamasi farmoyishi loyihasi | 2023-yil iyun | Hisob-kitoblarga koʻra | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**M. Kamilov** | Madaniyat va turizm vazirligi<br>**O. Nazarbekov,**<br>Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatla bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitas<br>**R. Kurbanov,**<br>Din ishlari boʻyich qoʻmitasi<br>**S. Toshboyev**,<br>Tashqi ishlar vazirligi<br>**B. Saidov,**<br>Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi<br>**X. Umarova,**<br>Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>**I. Abduraxmonov**<br>"Vatandoshlar" jamoat fondi<br>**O. Sattarov** |
| | | **2.** 16-noyabr — **Xalqaro bagʻrikenglik kuni**ga bagʻishlab respublikaning barcha hududlarida **"Bagʻrikenglik" haftaligi**ni oʻtkazish. | | 2023-yil oktyabr | Vazirlar Mahkamasi zaxira jamgʻarmasi,<br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining zaxira jamgʻarmalari | | |
| 230. | Oʻzbekistonda davlat tomonidan millatlararo munosabatlar sohasiga qaratilayotgan eʼtibor, soʻnggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar haqida maʼlumot beruvchi **maxsus hujjatli film yaratish hamda mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari** orqali keng yoritish. | Hujjatli film qonsepsiyasi va xarajatlar smetasini ishlab chiqish, filmni suratga olish va taqdimotini oʻtkazish. | Vazirlar Mahkamasi farmoyishi loyihasi | 2023-yil davomida | Hisob-kitoblarga koʻra<br>Davlat budjeti mablagʻlari doirasida | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**M. Kamilov** | Kinematografiya agentligi<br>**F. Abduxaliqov**,<br>Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatla bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitas<br>**R. Kurbanov** |
| 231. | Milliy madaniy markazlar qoshida faoliyat yuritayotgan **folklor ansambllarini qoʻllab-quvvatlash.** | **1.** Milliy madaniy markazlar qoshidagi **25 ta folklor ansamblining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash,** ularni **sahna liboslari, cholgʻu asboblari, zamonaviy ovoz kuchaytirish va yoritish uskunalari hamda avtobus bilan taʼminlash.**<br>**2.** Folklor jamoalariga repetitsiya va konsert tomoshalarini oʻtkazishlari uchun **madaniyat markazlaridan bepul foydalanish sharoitini yaratish.**<br>**3.** Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitasining katta zali bazasida **"Doʻstlik" konsert zalini tashkil etish,** kapital taʼmirlash hamda zamon talabiga mos ravishda jihozlash. | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi | 2023-yil iyun | Hisob-kitoblarga koʻra | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**M. Kamilov** | Madaniyat va turizm vazirligi<br>**O. Nazarbekov,**<br>Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatla bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitas<br>**R. Kurbanov,**<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br>**Sh. Kudbiyev** |
| **75-maqsad: Tasviriy va amaliy sanʼat hamda dizayn yoʻnalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 232. | **O'zbekiston tasviriy va amaliy san'atini** xalqaro darajada ommalashtirish. | **1.** Badiiy ijodkorlar uyushmasi huzurida tasviriy va amaliy san'at asarlari savdosiga ixtisoslashgan **"Toshkent auksion uyi"** faoliyatini yo'lga qo'yish.<br>**2.** Xorijdagi nufuzli auksion uylari bilan hamkorlik o'rnatish va xalqaro art yarmarkalarini tashkil etish.<br>**3.** Tasviriy va amaliy san'at asarlari kataloglarini chop etish.<br>**4.** Badiiy ta'lim bilan art industriya o'rtasida o'zaro hamkorlikni takomillashtirish.<br>**5.** O'zbekiston tasviriy va amaliy san'atini xorijda targ'ib etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil may | Ijrochilarning budjetdan tashqari mablag'lari | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**O. Abduraxmonov** | Badiiy akademiya<br>**A. Nuridinov,**<br>Toshkent shahar hokimligi**,**<br>Madaniy meros agentligi<br>**B. Abdukarimov** |
| **76-maqsad: Madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash** | | | | | | | |
| 233. | **Qoraqalpoq milliy folklor** san'atini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali yanada rivojlantirish va uni respublika va jahon miqyosida ommalashtirish. | Qoraqalpoq milliy folklor san'atini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash:<br>"Ayqulash" qoraqalpoq davlat milliy folklor ansambli faoliyatini rivojlantirish maqsadida uning ijodiy an'analarini saqlab qolish va rivojlantirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratish;<br>Qoraqalpoq milliy raqs san'atining mumtoz va zamonaviy ijro namunalari **"oltin fondi"**ni yaratish;<br>ansamblning respublikamiz va xorijiy mamlakatlarga gastrol safarlarini tashkil etish. | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi | 2023-yil aprel | Madaniyat va turizm vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari doirasida (7,5 mlrd so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining qo'shimcha manbalari | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**O. Abduraxmonov** | Madaniyat va turizm vazirligi<br>**O. Nazarbekov,**<br>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi |
| 234. | Milliy madaniyatimiz va san'atimizni keng targ'ib qilishga qaratilgan **xalqaro madaniy tadbirlarni o'tkazish**. | **1.** Guliston shahrida **III xalqaro Baxshichilik san'ati** festivalini tashkil etish va o'tkazish.<br>**2. "Sharq taronalari" XIII xalqaro musiqa festivali**ni tashkil etish va o'tkazish.<br>**3.** Buxoro shahrida **II xalqaro maqom san'ati anjumani**ni tashkil etish va o'tkazish.<br>**4.** Toshkent viloyatida **"Bahor nafasi" xalqaro festivali**ni tashkil etish va o'tkazish.<br>**5.** Andijon viloyatida **"Dunyo sadolari" xalqaro festivali**ni tashkil etish va o'tkazish.<br>**6.** Toshkent shahrida **Xalqaro kamer va simfonik musiqa festivali**ni tashkil etish va o'tkazish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023-yil davomida | Hisob-kitoblarga ko'ra | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**O. Abduraxmonov** | Madaniyat va turizm vazirligi<br>**O. Nazarbekov,**<br>Tashqi ishlar vazirligi<br>**B. Saidov,**<br>Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Andijon viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |

2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 235. | Respublikaning barcha hududlarida, ayniqsa, **chekka qishloq va mahallalarda istiqomat qiladigan aholiga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish** darajasini oshirish. | 2023-yilda respublika miqyosida o‘tkaziladigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining yillik kalendar rejasini tasdiqlash, bunda:<br><br>hududlarda **“Madaniyat karvoni”, “Madaniyat kunlari”, “Milliy kino kunlari”, “Kitob aksiyasi”** tadbirlari;<br><br>badiiy va sirk jamoalari, davlat teatrlarining hududlarga **gastrol safarlari, konsert va maydon tomoshalari, ijodiy uchrashuvlarni** tashkil etish va o‘tkazishni nazarda tutish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023-yil mart | Hisob-kitoblarga ko‘ra<br><br>2023-yilda ijrochilarga ajratilgan budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar doirasida<br><br>**50,0 mlrd so‘m** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Madaniyat va turizm vazirligi<br><br>**O. Nazarbekov,**<br><br>Kinematografiya agentligi<br><br>**F. Abduxalikov,**<br><br>Yozuvchilar uyushmasi<br><br>**S. Saidov,**<br><br>Ma’naviyat va ma’rifat markazi<br><br>**M. Hojimatov,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev** |
| 236. | Yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, havaskor **iste’dodli yoshlarni izlab topish,** ularni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish. | **1. Havaskor ijodkor yoshlar teatr-studiyalari** ko‘rik-festivalini tashkil etish va o‘tkazish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil may | Hisob-kitoblarga ko‘ra | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Madaniyat va turizm vazirligi<br><br>**O. Nazarbekov,**<br><br>MTRK<br><br>**A. Xadjayev,**<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi |
| | | **2. “Yangi O‘zbekistonning yangi iste’dodlari”** qo‘shiqlar teletanlovini o‘tkazish. | | 2023-yil iyun | | | |
| | | **3. Baxshichilik san’ati** yo‘nalishida yosh baxshilar, oqinlar va jirov ijrochilarining respublika ko‘rik-tanlovini o‘tkazish. | | 2023-yil noyabr | | | |
| 237. | **Ijodiy iqtisodiyot sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish** hamda ijodiy iqtisodiyot tarmoqlariga e’tiborni kuchaytirish. | O‘zbekistonda ijodiy iqtisodiyotni rivojlantirish hamda 2024-yilda **ijodiy iqtisodiyot bo‘yicha IV Butunjahon anjumanini o‘tkazishga** tayyorgarlik ko‘rish, bunda:<br><br>ijodiy iqtisodiyot bo‘yicha xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish;<br><br>2023 — 2026-yillarda O‘zbekistonda ijodiy iqtisodiyotni rivojlantirish dasturini qabul qilish;<br><br>ijodiy iqtisodiyot bo‘yicha **IV Butunjahon anjumani**ni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish yuzasidan amaliy chora-tadbirlarni belgilash. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil iyun | Hisob-kitoblarga ko‘ra<br><br>2023-yilda ijrochilarga ushbu maqsadlar uchun ajratilgan budjet mablag‘lari doirasida | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi<br><br>**G. Umerova,**<br><br>Tashqi ishlar vazirligi<br><br>**B. Saidov** |
| **77-maqsad: O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish** | | | | | | | |
| 238. | O‘zbekiston tarixining t**arixiy jang san’atini ilmiy o‘rganish** va namoyish qilish orqali mamlakatning turistik salohiyatini yanada oshirish. | **1.** O‘zbekiston tarixining **tarixiy jang san’atini ilmiy o‘rganish** bo‘yicha mutaxassislardan iborat tarkibda ishchi guruhni tashkil qilish.<br><br>**2.** Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi harbiy tematik lagerlarini tashkil etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish.<br><br>**3. Amir Temur** va **Jaloliddin Manguberdi** harbiy tematik lagerlarini tashkil qilish hamda turistlar uchun namoyish etish chora-tadbirlarini belgilash. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil iyun | Tashabbuskorlar va tadbirkorlik subyektlari mablag‘lari | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi<br><br>**G. Umerova,**<br><br>Mudofaa vazirligi<br><br>**B. Qurbonov,**<br><br>Madaniy meros agentligi<br><br>**B. Abdikarimov,**<br><br>Fanlar akademiyasi<br><br>**B. Yuldashev,**<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 239. | **Jadidchilik harakati davriga oid maʼlumotlar** va ilmiy **tadqiqotlarni rivojlantirish** va qoʻllab-quvvatlash. | **1.** Oʻzbekistonda jadidchilik harakati davri, **jadidlarning hayoti va faoliyatiga oid tarixiy maʼlumotlar**ni toʻplash.<br><br>**2.** Toʻplangan maʼlumotlar asosida **jadidchilik harakatiga bagʻishlangan koʻp jildlik kitob** nashr etish hamda hujjatli filmlar yaratish. | Vazirlar Mahkamasi farmoyishi loyihasi | 2023-yil sentyabr | Hisob-kitoblarga koʻra<br><br>Madaniyat va sanʼatni rivojlantirish jamgʻarmasiga budjetdan ajratilgan mablagʻlar doirasida | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Madaniyat va sanʼatni rivojlantirish jamgʻarmasi<br><br>**G. Umerova,**<br><br>Madaniyat va turizm vazirligi<br><br>**O. Nazarbekov,**<br><br>“Oʻzarxiv” agentlig<br><br>**U. Yusupov,**<br><br>Badiiy akademiya<br><br>**A. Nuridinov,**<br><br>Fanlar akademiyas<br><br>**B. Yuldashev** |
| **78-maqsad: Milliy kino sanʼatini rivojlantirish** | | | | | | | |
| 240. | Kino sanoatini **davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimini** bozor tamoyillari asosida takomillashtirish, shuningdek, xorijiy kinokompaniyalarni mamlakatga jalb qilish va **hamkorlikda filmlar ishlab chiqarishni rivojlantirish**. | **1.** Badiiy, hujjatli, xronikal, badiiy-publitsistik, ilmiy-ommabop, animatsion, ko-produksiya filmlar va seriallarni ishlab chiqarishni moliyalashtirish boʻyicha tegishli normalarni ishlab chiqish.<br><br>**2.** Ko-produksiya yoʻnalishida filmlarni yaratish shartlari va moliyalashtirish tartibini belgilash.<br><br>**3.** Kinematografiya agentligi huzurida davlat buyurtmasi asosida yaratiladigan kino mahsulotlarini moliyalashtirish boʻyicha hujjatlar (shartnoma, kelishuv, memorandum)ni ekspertizadan oʻtkazish boʻyicha Ekspert kengashi hamda xalqaro hamkorlikda ishlab chiqariladigan har bir film boʻyicha ekspertlar kengashlarini ni tuzish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil avgust | Kinematografiya agentligiga Davlat budjetidan davlat buyurtmasi va milliy seriallar ishlab chiqarish uchun ajratilgan mablagʻlar doirasida | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Kinematografiya agentligi<br><br>**F. Abduxalikov,**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev,**<br><br>Adliya vazirligi<br><br>**A. Tashkulov** |
| **VI. MILLIY MANFAATLARDAN KELIB ChIQQAN HOLDA UMUMBAShARIY MUAMMOLARGA YONDAShISh** | | | | | | | |
| **79-maqsad: Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 241. | **Orolboʻyi hududini ekologik jihatdan** tiklash ishlarini kengaytirish. | **1.** Qabul qilingan qarorlar va Orolboʻyi hududini ekologik jihatdan tiklash dasturi bajarilishini inventarizatsiya qilish hamda ushbu hududda ekologik vaziyatni yanada yaxshilash boʻyicha takliflar ishlab chiqish.<br><br>**2.** Janubiy Orol dengizi zonasining barqaror suv ta’minotini yaxshilash boʻyicha tegishli takliflar ishlab chiqish.<br><br>**3.** Suv hisob-kitobini takomillashtirish hamda suvni oʻlchash stansiyalarini modernizatsiya qilish va tiklash.<br><br>**4.** Delta boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun mutaxassislarni jalb qilish va barqaror moliyalashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlash.<br><br>**5.** Suv qushlarini nazoratsiz ovlashni cheklash, butalarni kesish va quruq qamishlarni yoʻq qilishni tashkil etish, yaylov akvakulturasini rivojlantirish uchun foydalanilmayotgan imkoniyatlarni ishga solish.<br><br>**6.** Ustyurt platosi va Sudochye qirgʻoq boʻyida ushbu mintaqa tabiatini va tarixini saqlagan holda turizm faoliyatini rivojlantirish. | Amaliy chora-tadbirlar dasturi | 2023-yil davomida | Xalqaro va xorijiy hamkorlar grantlari | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**T. Xudaybergenov** | Suv xoʻjaligi vazirlig<br><br>**Sh. Xamrayev**,<br><br>Tabiat resurslari vazirligi<br><br>**A. Abduxakimov**<br><br>Gidrometeorologiy xizmati agentligi<br><br>**Sh. Xabibullayev**<br><br>Markaziy Osiyo Davlatlararo muvofiqlashtiruvc suv komissiyasinin ilmiy-axborot markazi,<br><br>Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institu |
| 242. | Samarqand shahri misolida hududlarni **“yashil” shaharga aylantirish** boʻyicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish. | **1.** Dasturni ishlab chiqish boʻyicha xalqaro tashkilotlar, moliya institutlarini jalb qilish.<br><br>**2.** Dasturni ishlab chiqish boʻyicha ishchi guruh tashkil etish, unga xorijiy ekspertlarni jalb qilish.<br><br>**3.** Dasturni aholi va tadbirkorlar ishtirokida ishlab chiqish.<br><br>**4.** Dasturni vazirlik va idoralar bilan kelishish va tasdiqlash. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023-yil noyabr | Hisob-kitoblarga koʻra | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**A. Ramatov** | Samarqand viloya hokimligi<br><br>**E. Turdimov**,<br><br>Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjalig vazirligi<br><br>**B. Zakirov**,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev** |
| 243. | Oʻzbekistonning olis hududlaridagi aholini **ijtimoiy buyurtma loyihalari asosida toza ichimlik suv** bilan ta’minlash. | Ijtimoiy buyurtmalar mexanizmi asosida sifatli suv ta’minotini amalga oshirish boʻyicha 2023-2024-yillarga moʻljallangan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, bunda:<br><br>aholini sifatli ichimlik suv bilan ta’minlash borasida hamkorlik qilishi mumkin boʻlgan NNTlar bilan uchrashuvlar oʻtkazish va davlat ijtimoiy buyurtmasi doirasida aholi punktlarini ichimlik suv bilan ta’minlash masalasini muhokama qilish;<br><br>hududlar aholisini toza ichimlik suv bilan ta’minlash borasida davlat ijtimoiy buyurtmasini Respublika hududlarida tatbiq etish choralarini koʻrish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023-yil iyul | Jahon banki va Yevropa Ittifoqi grantlari, davlat maqsadli jamgʻarmalar va xususiy fondlar,<br><br>Respublika budjeti mablagʻlari, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**M. Olloyorov** | Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjalig vazirligi<br><br>**B. Zakirov**,<br><br>“Oʻzsuvta’minot” A<br><br>**S. Saifnazarov** |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 244. | Oʻzbekiston Respublikasida **radiatsiyaviy va yadroviy xavfsizlikni taʼminlash** chora-tadbirlarini ishlab chiqish. | **1.** Radioaktiv chiqindilar tarkibidagi radioaktiv elementlar tarkibini miqdoriy baholashni amalga oshirish boʻyicha takliflar ishlab chiqish.<br>**2.** Radiatsiyaviy xavfli obyektlarni **radioekologik pasportizatsiyadan oʻtkazish**.<br>**3.** Radiatsiyaviy xavfli obyektlarda ichimlik suvlarni radioekologik holatini baholash va bu boʻyicha amaliy takliflar ishlab chiqish.<br>**4. Oʻzbekiston Respublikasi radiologik atlasini** ishlab chiqish.<br>**5.** Radioaktiv chiqindilarni utilizatsiya qilgan holda metallolomlarni aniqlash, zararsizlantirish tizimini joriy etish boʻyicha ishlarni tashkil qilish.<br>**6.** Mayluu-Suu daryo atrofidagi vaziyatdan kelib chiqqan mavjud transchegaraviy muammolarni hal qilish uchun Qirgʻiziston bilan hamkorlikni kengaytirish boʻyicha tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqish.<br>**7.** Radiatsiyaviy va yadroviy xavfsizligi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish boʻyicha faoliyatni kengaytirish dasturini ishlab chiqish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023-yil avgust | Xalqaro va xorijiy hamkorlar grantlari, davlat budjeti mablagʻi | Xavfsizlik kengashi kotibi oʻrinbosari<br>**T. Valiyev** | Togʻ-kon sanoati v geologiya vazirlig<br>**B. Islamov,**<br>Togʻ-kon, geologiy va sanoat xavfsizli nazorat inspeksiya<br>**B. Gulyamov**,<br>Sogʻliqni saqlash vazirligi<br>**A. Inoyatov**,<br>Fanlar akademiya<br>**B. Yuldashev** |
| 245. | **Maishiy chiqindilarni yigʻishni 100 foizga**, uni **qayta ishlash darajasini** 21 foizdan **50 foizga** yetkazish. | **1.** Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi "Qattiq maishiy chiqindilarni barqaror boshqarish" loyihasi doirasida 100 ta maxsus texnika xarid qilish.<br>**2.** Tibbiyot chiqindilarini utilizatsiya qilish tizimini yaratish uchun 4 ta tibbiyot chiqindilarini utilizatsiya qilish uchastkalarini qurishni boshlash, 18 ta maxsus texnika, 5 ta zararsizlantirish uskunasi (avtoklav), 9 ta utilizatsiya qilish uskunasi (insinirator) bilan taʼminlash uchun shartnoma tuzish. | Tarmoq jadvali, manzilli dastur<br>Tarmoq jadvali, manzilli dastur | 2023-yil davomida<br>2023-yil davomida | Osiyo Taraqqiyot bankining imtiyozli qarz mablagʻlari,<br>(**8,5 mln doll**)<br>Oʻzbekiston Respublikasining 2023 — 2025-yillarga moʻljallangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilma-sini rivojlantirish dasturi doirasida | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**B. Mavlonov** | Tabiat resurslari vazirligi<br>**A. Abduxakimov** |
| 246. | Atrof tabiiy muhitni kuzatish, davlat **ekologik nazoratini doimiy axborot bilan taʼminlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof-muhitga taʼsiri monitoringini** amalga oshirish. | **1.** Atrof-muhit monitoringi doirasida **685 ta (atmosfera havosi, tuproq va yer usti suv obyektlari) obyektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan namunalar olish** va ularni tahlil qilish.<br>**2.** Atrof tabiiy muhitning davlat monitoringini oʻtkazish va uning natijalarini yagona geoaxborot maʼlumotlar bazasiga kiritib borish. | Atrof-muhit monitoringi dasturi | 2023-yil davomida | Tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida (har yili budjetdan ajratiladigan mablagʻlar, tegishli korxonalar mablagʻlari) | Xavfsizlik kengashi kotibi oʻrinbosari<br>**A. Kamilov,**<br>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br>**B. Mavlonov** | Tabiat resurslari vazirligi<br>**A. Abduxakimov** |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 247. | Iqtisodiyot tarmoqlarining **havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 10 foizgacha** qisqartirish. | **1.** Yangi ishga tushirilayotgan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarida ifloslantiruvchi manbalarida samaradorligi **99,5 foizdan** kam bo'lmagan chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatishni tashkil qilish.<br><br>**2.** Xavflilik darajasi yuqori va o'rta bo'lgan metallurgiya, yog'-moy, energetika va qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi **145 ta** yirik va o'rta toifadagi korxonalarda samaradorligi **95 foizdan** kam bo'lmagan chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil oktyabr | Hisob-kitoblarga ko'ra (korxonalarning o'z mablag'lari) | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**B. Mavlonov** | Tabiat resurslari vazirligi<br><br>**A. Abduxakimov**<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev** |
| 248. | Orol dengizining g'arbiy qismidagi hududlarning **gidrogeologik potensialini baholash** bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish orqali Qoraqalpog'iston **Respublikasidagi yer osti suvlari holati to'g'risida** elektron xarita ishlab chiqish. | Orol dengizining G'arbiy qismidagi hududlarda gidrogeologik izlanishlar olib borish va uning natijalari asosida yer osti suvlarining elektron xaritasini ishlab chiqish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil dekabr | Davlat va mahalliy budjet, investitsiya hamda xalqaro moliya institutlari mablag'lari | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi<br><br>**Sh. Vafayev** | Tog'-kon sanoati v geologiya vazirlig<br><br>**B. Islamov**,<br><br>Qoraqalpog'istor Respublikasi Vazirlar Kengashi |
| 249. | Orolbo'yi hududi **baliqchilik sohasida baliq yetishtirishning ilmiy asoslangan usullari va intensiv texnologiyalarini** joriy etish. | **1.** Orolbo'yi mintaqasidagi tabiiy va sun'iy suv havzalarida baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish.<br><br>**2.** Baliqchilik va baliq ovlash tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish.<br><br>**3.** Baliq mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish.<br><br>**4.** Baliq yetishtirishning ilmiy asoslangan usullari va intensiv texnologiyalarini joriy etish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil avgust | Hisob-kitoblarga ko'ra | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**B. Mavlonov,**<br><br>**T. Xudaybergenov** | Qishloq xo'jaligi vazirligi<br><br>**A. Voitov**,<br><br>Suv xo'jaligi vazirli<br><br>**Sh. Xamrayev**,<br><br>Tabiat resurslari vazirligi<br><br>**A. Abduxakimov**<br><br>"O'zbekbaliqsanoa uyushmasi<br><br>**O. Musayev** |
| 250. | Orolbo'yi mintaqasining turli hududlarida **turistlarga qulayliklar yaratish uchun maqsadli ekoturizm marshrutlar xaritasini ishlab chiqish va hududning turli nuqtalarida ekolagerlar va ekomarshrutlar** tashkil etish. | **1.** "Quyi Amudaryo" davlat biosfera rezervati, "Saygachiy" majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonasi, "Sudochye-Akpetki" davlat buyurtma qo'riqxonasi, "Janubiy Ustyurt" milliy tabiat bog'i va "Orolqum" milliy tabiat bog'i hamda "Borsakelmas" davlat buyurtma qo'riqxonasida, Mo'ynoq shahridagi dengiz kemalari qabristoni, Sudochye ko'lida ekoturizmni rivojlantirish ishlarini tashkil etish.<br><br>**2.** Ushbu hududlarga turistlarni keng jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda hudud bo'ylab harakatlanish xaritasini ishlab chiqish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Respublika budjeti, investitsiya hamda xalqaro moliya institutlari mablag'lari | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**O. Abduraxmonov** | Madaniyat va turizm vazirligi<br><br>**O. Nazarbekov**,<br><br>Qoraqalpog'istor Respublikasi Vazirlar Kengashi<br><br>Tabiat resurslari vazirligi<br><br>**A. Abduxakimov** |
| **80-maqsad: Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 251. | **"Yashil makon"** umummilliy loyihasini amalga oshirish. | **"Yashil makon"** umummilliy loyihasi doirasida **200 mln** tup manzarali, mevali daraxt va butalar koʻchatlari hamda qalamchalarini ekish. Bunda:<br><br>koʻkalamzorlashtiriladigan maydonlarni aniqlash, har bir hududning **tabiiy tuproq iqlim sharoitiga mos koʻchat** va qalamchalarni tanlash, **ekish** hamda agrotexnika qoidalari asosida **sugʻorish, parvarishlash** boʻyicha amaliy choralar, **moliyalashtirish** manbalari va mas'ullarni belgilashni qamrab olgan **Hukumat farmoyishi** loyihasini ishlab chiqish;<br><br>farmoyishga asosan koʻkalamzorlashtirish va koʻchat ekish tadbirlarini amalga oshirish hamda 2023-yil bahorda **125 mln** tup va kuzda **75 mln** tup koʻchat ekishni tashkil etish;<br><br>koʻkalamzorlashtiriladigan maydonlarda, shuningdek ijtimoiy soha obyektlarida koʻchatlarni ekish, sugʻorish tizimlarini joriy etish, parvarishlash va kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash ishlariga alohida e'tibor qaratish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Mahalliy budjetlarning qoʻshimcha manbalari, homiylik va grant mablagʻlari | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**B. Mavlonov**,<br><br>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**Sh. Gʻaniyev** | Tabiat resurslari vazirligi<br><br>**A. Abduxakimov**<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari |
| **81-maqsad: Oʻrmonlar maydonini kengaytirish** | | | | | | | |
| 252. | **Orol fojiasining** oldini olishga qaratilgan **oʻrmon-meliorativ tadbirlarni** jadallashtirish. | **1.** Orol dengizining qurigan tubida **"yashil qoplamalar"** himoya oʻrmonzorlari barpo etish **loyihasi va xaritasini** ishlab chiqish.<br><br>**2.** "Yashil qoplama"lar va himoya oʻrmonzorlari barpo etish uchun **choʻl oʻsimliklari turlarini** tanlash, talab etiladigan **urugʻlik va koʻchat ekish** materiallari zaxirasini yaratish.<br><br>**3.** Orol dengizining qurigan tubi va Orolboʻyi *(Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Navoiy, Buxoro, Xorazm viloyatlari)* hududida jami **200 ming** gektar maydonda **"yashil qoplama"lar** barpo etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan manbalar mablagʻlari | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**B. Mavlonov** | Oʻrmon xoʻjaligi agentligi<br><br>**N. Bakirov**<br><br>Tabiat resurslari vazirligi<br><br>**A. Abduxakimov**<br><br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi v viloyatlar hokimliklari |
| **82-maqsad: Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish** | | | | | | | |

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 253. | BMTning Terrorizmga qarshi kurashish boshqarmasi qoshida repatriantlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish masalalari bo'yicha Markaziy Osiyo yetakchi ekspertlar Kengashini tashkil qilish. | **1.** BMTning Terrorizmga qarshi kurashish boshqarmasi bilan **Markaziy Osiyo yetakchi ekspertlar** Kengashining maqsad vazifalari yuzasidan konsultatsiya o'tkazish, Kengashning konsepsiyasi va dasturini ishlab chiqish.<br><br>**2.** Markaziy Osiyo davlatlari bilan Kengashning konsepsiyasi va dasturini kelishuvdan o'tkazish. Kengash a'zoligiga nomzodlarni aniqlash, kelishuvdan o'tkazish va tasdiqlash.<br><br>**3.** Toshkent shahrida Kengashning birinchi majlisini tashkil etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil sentyabr | Markaziy Osiyo davlatlari mutasaddi idoralari, BMTning tegishli tuzilmalari mablag'lari | Xavfsizlik kengashi kotibi o'rinbosari<br><br>**A. Kamilov** | Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institu<br><br>**E. Aripov**,<br><br>Tashqi ishlar vazirligi<br><br>**B. Saidov**,<br><br>Ichki ishlar vazirlig<br><br>**P. Bobojonov**,<br><br>Bosh prokuratura<br><br>**N. Yo'ldoshev** |
| 254. | Maktablarda ta'lim olayotgan yoshlarning buzg'unchi oqimlar ta'siriga tushishining oldini olish, ularga **O'zbekiston Respublikasida qonun ustuvorligi masalalarini tushuntirish hamda buyuk ajdodlarimiz merosi** bilan tanishtirish. | **1.** Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida targ'ibot guruhlarini shakllantirish.<br><br>**2.** Targ'ibot guruhlari maqsadli ish rejalarini (1 — 4, 5 — 8, 9 — 11-sinflar kesimida), tarbiyaviy ishlar rejasi va tezislarini tayyorlash.<br><br>**3.** Tadbirlarni tizimli ravishda ta'sirchan shakllarda amalga oshirish hamda OAV orqali davriy yoritib borish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil oktyabr | Hisob-kitoblarga ko'ra | Xavfsizlik kengashi kotibi birinchi o'rinbosari<br><br>**E. Aripov** | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi<br><br>**X. Umarova**,<br><br>Yozuvchilar uyushmasi<br><br>**S. Saidov**,<br><br>MTRK<br><br>**A. Xadjayev**,<br><br>Din ishlari bo'yich qo'mita<br><br>**S. Toshboyev**,<br><br>Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi<br><br>**M. Hojimatov** |
| 255. | **"Diniy bag'rikenglik"** ko'krak nishonini ta'sis etish. | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish.<br><br>Loyihada vijdon erkinligi kafolatlarini himoya qilish, dinlararo va konfessiyalararo totuvlik va bag'rikenglikni mustahkamlashga hissa qo'shgan davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari, diniy ulamolar mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida "Diniy bag'rikenglik" ko'krak nishonini ta'sis etish nazarda tutiladi. | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi | 2023-yil iyun | Hisob-kitoblarga ko'ra | Xavfsizlik kengashi kotibi o'rinbosari<br><br>**A. Kamilov** | Din ishlari bo'yich qo'mita<br><br>**S. Toshboyev**,<br><br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi<br><br>**Sh. Kudbiyev** |
| 256. | Aholi, ayniqsa, yosh avlodda **terrorizm va ekstremizmga qarshi qat'iy va barqaror immunitet**ni shakllantirish. | **1.** "Jaholatga qarshi ma'rifat" shiori ostida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, dinlararo va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, terrorizm va ekstremizm g'oyalariga qarshi ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotni tashkil etish bo'yicha Dastur ishlab chiqish va tasdiqlash.<br><br>**2.** Amalga oshirilayotgan ishlarning tizimli monitoringini yuritish, har chorakda Vazirlar Mahkamasi va Prezident Administratsiyasiga ma'lumot kiritib borish. | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi | 2023-yil aprel<br><br>2023-yil davomida | Hisob-kitoblarga ko'ra | Vazirlar Mahkamasi<br><br>**Z. Mahkamova** | Din ishlari bo'yich qo'mita<br><br>**S. Toshboyev**,<br><br>tegishli vazirlik va idoralar |
| | **83-maqsad: Davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish** | | | | | | |

[2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida]

[ILOVA
2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI]

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 257. | Davlat organlari va tashkilotlarida **halollik standartlari va korrupsiyani oldini olishning** samarali mexanizmlarini yaratish | Korrup�iyaga qarshi kurashishda davlat organlari va tashkilotlarining ichki nazorat tuzilmalari mustaqilligini ta'minlash. Bunda:<br><br>davlat organlari va tashkilotlari ichki nazorat tuzilmalari huquqiy maqomini belgilash;<br><br>ichki nazorat tuzilmalarining funksiya, vazifa, vakolat va majburiyatlarini aniq belgilash, ularning shtatlar sonini belgilashning aniq mezonlarini ishlab chiqish;<br><br>ichki nazorat tuzilmalari xodimlariga qo'yiladigan malaka talablarini belgilash;<br><br>ichki nazorat tuzilmalari xodimlarini majburiy tartibda malakasini oshirish, attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash. | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi | 2023-yil aprel | - | O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi raisi<br><br>**T. Narbayeva** | Korrupsiyaga qars kurashish agentlig<br><br>**A. Burxanov**,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>**A. Tashkulov,**<br><br>Bosh prokuratura<br><br>**N. Yo'ldoshev** |
| **84-maqsad: Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish** | | | | | | | |
| 258. | **Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish,** davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin **kamaytirish maqsadida davlatning yaqin istiqboldagi asosiy yo'nalishini belgilash**. | Quyidagilarni nazarda tutuvchi **Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023 — 2027-yillarga mo'ljallangan milliy strategiyani** ishlab chiqish:<br><br>turli korrupsiyaviy holatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni tahlil qilish;<br><br>korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi tizimli choralar samaradorligini baholash;<br><br>O'zbekiston a'zo bo'lgan konvensiyalar va boshqa xalqaro huquqiy shartnomalarda korrupsiyani oldini olish va u bilan kurashish choralarini inobatga olish;<br><br>davlat va jamiyatda korrupsiyaga olib keluvchi asosiy sabab va shart-sharoitlarga barham berish choralarini belgilash.<br><br>Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha **2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi**ni ishlab chiqish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil may | - | O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi raisi<br><br>**T. Narbayeva**<br><br>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi<br><br>**D. Kadirov** | Korrupsiyaga qars kurashish agentlig<br><br>**A. Burxanov**,<br><br>Bosh prokuratura<br><br>**B. Valiyev,**<br><br>Adliya vazirligi<br><br>**A. Tashkulov**,<br><br>manfaatdor vazirli va idoralar |

2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida

ILOVA
2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
